

MIRZAOBOD TUMAN AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI

JADIDCHILIK HARAKATI ASOSCHILARI



QO'LLANMA

Tuzuvchi:

M.Turapova

Kirish o'rnida

Jadidchilik yoki **jadidizm** (*jadīd* — yangi) – o'n to'qqizinchi asr oxiri yigirmanchi asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim va Tatariston ziyolilari hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat. Dastlab jadidchilik XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan O'rta Osiyoda tarqaldi. adidchilik avval madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Keyinchalik jadidchilar panturkizm g'oyalarini targ'ib qilishgan

Sovet davrida yozilgan adabiyotlarda jadidchilikka „burjua-liberal, millatchilik harakati“ deb ta'rif berilgan. Bu davrda asosan tanqid qilingan jadidchilik namoyandalari nomi SSR parchalanib ketganidan keyin qayta tiklandi.

. Jadidchilik dastlab **19-asrning 80-yillarida Qrimda Ismoilbek** Gasprinskiy rahbarligida qrimtatarlar o'rtasida vujudga keldi. Jadidchilik harakati namoyandalari ko'pincha o'zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyat e'tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag'lubiyatga uchrash davrlari bo'lib, ularni shartli ravishda to'rtga bo'lish mumkin.

Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895-1905; 1906-1916; 1917-1920; 1921-1929-yillarni o'z ichiga oladi. Birinchi davrda Turkistonda podsho Rossiyasining mustahkam o'rnashib olishi kuzatiladi. U o'z siyosiy agentlari (vakillari) yordamida mahalliy xon va amir vakolatlarini cheklabgina qolmay, ularni qo'g'irchoqqa aylantirib, rus va g'arb sarmoyadorlarining ishlashi va yashashi uchun sharoit yaratadi, turli kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatlari manfaatini ko'zlaydi. Ayni chog'da mahalliy aholining talab va ehtiyojlari nazarga olinmay qo'yildi, diniy e'tiqodlari, urf-odatlar bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslik kuchaydi. Hayotiy, ilmiy saviyasi yuqori bo'lgan qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirildi, poraxo'rlik, ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik avj oldi. Madrasa va maktablar faoliyatini cheklash, mahalliy joy nomlarini ruscha atamalar bilan almashtirish, hatto mahkama jarayonida qozilar bo'yniga xoch

taqtirishgacha borildi. O'sha davr ahvolini Muhammadali xalfa Sobir o'g'li (Dukchi eshon) xalqqa qarata o'z „**Xitobnoma**“si (1898)da yaxshi bayon qilgan. Millat istiqbolini o'ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari — hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg'otish — siyosiy-ma'rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o'ziga qulay zamin topdi. Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va o'z vatanlarini mustaqil ko'rishni orzu qildilar va shu yo'lda kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo'nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish; turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish. Jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi.

Jadidchilik harakati namoyandalari ko'pincha o'zlarini *taraqqiyparvarlar*, keyinchalik *jadidlar* deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyat e'tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag'lubiyatga uchrash davrlari bo'lib, ularni shartli ravishda to'rtga bo'lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895–1905; 1906–1916; 1917–1920; 1921–1929-yillarni o'z ichiga oladi.

Birinchi davrda Turkistonda podsho Rossiyasining mustahkam o'rnashib olishi kuzatiladi. U o'z siyosiy agentlari (vakillari) yordamida mahalliy xon va amir vakolatlarini cheklabgina qolmay, ularni qo'g'irchoqqa aylantirib, rus va g'arb sarmoyadorlarining ishlashi va yashashi uchun sharoit yaratadi, turli kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatlari manfaatini ko'zlaydi. Ayni chog'da mahalliy aholining talab va ehtiyojlari nazarga olinmay qo'yildi, diniy e'tiqodlari, urf-odatlar bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslik kuchaydi. Hayotiy, ilmiy saviyasi yuqori bo'lgan qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirildi, poraxo'rlik, ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik avj

oldi. Madrasa va maktablar faoliyatini cheklash, mahalliy joy nomlarini ruscha atamalar bilan almashtirish, hatto mahkama jarayonida qozilar bo'yniga xoch taqtirishgacha borildi. O'sha davr ahvolini Muhammadali xalfa Sobir o'g'li (Dukchi eshon) xalqqa qarata o'z „Xitobnoma“sida (1898) yaxshi bayon qilgan.

Millat istiqbolini o'ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari—hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg'otish – siyosiy-ma'rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik



harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o'ziga qulay zamin topdi.

Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va o'z vatanlarini mustaqil ko'rishni orzu

qildilar va shu yo'lda kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo'nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish; turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish.

Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari quyidagilar edi:

- Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish
- shariatni isloh qilish
- xalqqa ma'rifat tarqatish
- Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash
- Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament
- keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish
-
- barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzish.

Toshkent, Farg‘ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhleri tomonidan ochilgan madaniy-ma’rifiy yo‘nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi.

Turkiston mintaqasidagi jadidchilik harakati, tarqalish joyi va yo‘nalishiga ko‘ra, uchga bo‘linadi:

- *Turkiston* jadidchiligi
- *Buxoro* jadidchiligi
- *Xiva* jadidchiligi.

Turkiston jadidlari bilan Buxoro va Xiva jadidlari o‘rtasida bir muncha tafovut bor. Turkiston o‘lkasidagi jadidchilikning ijtimoiy asosini ziyolilar tashkil qildi. Ular Chor Rossiyasi mustamlakachiligiga qarshi kurashning oldingi saflarida turib, chorizmning xomashyo manbaiga aylantirilgan Turkistonning dastlab muxtor, so‘ng mustaqil davlat bo‘lishini yoqlab chiqdilar. Buxorodagi jadidchilik Turkistondagiga nisbatan og‘ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda yuzaga keldi. Uning tarkibi asosan Buxorodagi shahar aholisining taraqqiyparvar qismi: ziyolilar, mullalar, mayda do‘kondorlar va ma’murlar, hunarmandlar, savdogarlardan iborat edi. Jadidlarning dehqonlar va askarlar o‘rtasida nufuzi avvaliga past bo‘lgan. Jadidlar iqtisod va boshqaruv sohasida bir qator talablar, chunonchi, soliqlarni kamaytirish talabi bilan chiqishdi. Ular dastlab Buxorodagi amirlik tuzumi doirasida islohotlar joriy qilmoqchi bo‘lishdi. Buxoroda vobkentlik dehqon Jo‘raboy ilk yangi usul maktabini ochgan edi.

Buxorodagi jadidchilik harakatiga ayrim johil mullalar, har qanday yangilik va islohotlarning dushmani bo‘lgan qadimchilar oqimi qarshi chiqdi. XX asr boshlarida Buxoro jamiyati 2 guruhga: Ikrom domla rahbarligidagi taraqqiyparvarlar va Mulla Abdurazzoq boshchiligidagi qadimchilarga bo‘lingan edi.

1908-yil „Buxoroi sharif shirkati“ tuzilib, darsliklar nashr etish va kitob savdosi bilan shug‘ullandi. Ushbu insonlar shirkatning tashkilotchilari edi:

- Ahmadjon Hamdiy (Abusaidov)
- Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev (Usmon Xo‘ja)
- Homidxo‘ja Mehriy, Abdulvohid Burhonov
- Abdulqodir Muhiddinov, Sadriddin Ayniy
- Abdurahmon Sa’diy.

1909-yil dekabrda jadidlar Buxoroda „Tarbiyai atfol“ („Bolalar tarbiyasi“) maxfiy jamiyatini tuzishdi (asoschilari: Abdulvohid Burhonov, Homidxo‘ja Mehriy, Ahmadjon Hamdiy, Mukammil Burhonov, Hoji Rafe). Bu jamiyat turkistonlik va buxorolik yoshlarni Istanbuldagi „Buxoro ta‘mimi maorif jamiyati“ bo‘limiga o‘qishga jo‘natdi. Xorijdagi ta‘lim yoshlar dunyoqarashida tubdan burilish yasadi. Jadidchilik Buxoro va Turkistonda bir vaqtda boshlangan bo‘lsa ham, amirlikdagi og‘ir muhit uning taraqqiyotini tezlashtirdi. 1910-yildan boshlab Buxoroda jadidchilik harakati tashkiliy tus oldi va „Tarbiyai atfol“ maxfiy jamiyati asosida partiya tashkil topdi. 20-asr boshlarida Xivada shakllangan jadidchilik bir qadar boshqacharoq tarixiy shart-sharoitda vujudga keldi. U bu yerda asosan ikkita oqimdan iborat edi. Uning o‘ng oqimi xonlikda rivojlanayotgan savdo-sanoat korxonalari egalari hamda yirik boylarning vakillarini o‘ziga birlashtirgan edi. Bu oqimga Xiva xoni Asfandiyorxonning bosh vaziri Islomxo‘ja boshchilik qilgan. Jadidchilikning o‘ng oqimi o‘z oldiga mamlakatda xon hokimiyatini saqlab qolgan holda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o‘tkazish orqali erkin bozor munosabatlarining rivojlanishiga keng yo‘l ochib berishni maqsad qilib qo‘ygan edi.

Xivada jadidchilikning so‘l oqimi esa mayda sarmoyadorlar, hunarmandlar va xalqning turli tabaqa vakillarini birlashtirgan bo‘lib, qozikalon Boboaxon Salimov uning rahbari edi. Ular Xiva xonligida yangi usul maktablari tashkil qilish orqali xalq ommasining siyosiy faolligini o‘stirish maqsadini qo‘yishgan edi. 1904-yil „jamiyati xayriya“ tuzilib, uning ko‘magi bilan Xiva shahrida dastlabki yangi usul maktabi ochildi (1904-yil 10-noyabrda). Xiva jadidlari ma‘rifiy ishlar bilan kifoyalanib qolmasdan, xon tuzumiga qarshi kurash ham olib bordilar. Birinchi jahon urushigacha Xiva jadidlarining yagona markazi va dasturiy hujjatlari bo‘lmagan. Biroq jadidchilik harakati Xiva xonligida katta ijtimoiy-siyosiy kuchga aylanib, 1914-yil avgustda u partiya shaklini olgan.

Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga keltiruvchilar tepasida ushbu insonlar turardi:

Mahmudxo‘ja, Behbudiy, Abduqodir
Shukuriy (Shakuriy), Ajziy (Samarqand), Munavvarqori
Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Majid Qori Qodiriy, Ubaydullaxo‘ja
Asadullaxo‘jayev (Ubaydulla Xo‘jayev), Toshpo‘latbek

Norboʻtabekov (Toshkent), Fitrat, Fayzulla Xoʻjayev, Usmonxoʻja Poʻlatxoʻjayev, Abdulvohid Burhonov, Sadriddin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Hamza, Choʻlpon, Isʻhoqxon Ibrat, Muhammadsharif Soʻfizoda (Fargʻona vodiysi), Boltihoji Sultonov, Rahmonberdi Madazimov, Fozilbek Qosimbekov (Oʻsh uyezdi), Polvonniyoz hoji Yusupov, Bobooxun Salimov (Xorazm)

1904–1905-yillardagi rus-yapon urushi, 1905–1907-yillarda boʻlgan 1-rus inqilobi, 1905–1911-yillardagi Eron inqilobi, 1908-yil Turkiyada boʻlgan Yosh turklar inqilobi jadidlar dunyoqarashiga kuchli taʼsir koʻrsatdi. Jadidlar oʻz gazeta va jurnallari, yangi usul maktablari, turli kutubxona va qiroatxonalar, havaskor teatr truppalari tevaragida toʻplanishar edi. Ularning koʻpchiligi shu davrning koʻzga koʻringan ijodkorlari shoir-u yozuvchilar edi. Ular oʻz asarlari bilan tarixan yangi milliy adabiyot yaratdilar. Adabiyot davr voqealariga hamohang bordi. 1910-yillardayoq maʼrifat va ozodlik gʻoyalari uning markaziy mavzuyiga aylandi. Adabiyotga „millat“ va „vatan“ tushunchalari kirib keldi. Milliy sheʼrlarga ragʻbat kuchaydi. Yangi zamonaviy dostonchilik maydonga keldi, publitsistika (Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori, Mirmuhsin) rivojlandi, realistik proza shakllandi. Shuning uchun ham bu davr adabiyoti Oʻzbekiston mustaqilligidan keyin *milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti* deb davrlashtirildi.

Adabiyotdagi bunday uygʻonish, ayni vaqtda, shu davr madaniy hayotida ham roʻy berdi. Jadidlar oʻzbek xalqi hayotiga tom maʼnodagi milliy teatrni olib kirdi. Milliy matbaaning vujudga kelishi bilan kitob bosish ishi yoʻlga qoʻyila boshlandi. Yevropa koʻpovozli musiqa sanʼati bilan tanishgan jadidlar oʻzbek anʼanaviy musiqa uslublarini ham isloh qilishga daʼvat etishgan. 1919-yilda Toshkentning Eski shahar qismi (hozirgi „Turon“ kutubxonasi yonidagi binoda) jadidlar tashabbusi bilan Turkiston xalq konservatoriyasining milliy (eski shahar) boʻlimi tashkil etildi. Shu tarzda jadidlar sanʼat vositasi bilan millat qadrini koʻtarish, sanʼatning deyarli barcha turlarini yuksaltirishga intildilar. „Oʻzbekiston Respublikasi“ maxsus jildining tegishli boʻlimlariga – *adabiyoti, teatri, musiqasiga* jadidchilikning aksar vakillari yoshlarga dastavval diniy taʼlim bilan bir qatorda dunyoviy fanlarni oʻqitish masalasini kun tartibiga qoʻydilar. Ular musulmon maktablarining taʼlim usuli va dasturlarini isloh qilib, yangicha usuldagi maktablarni ochdilar. Behbudiy, Munavvarqori, Abdulvohid

Burhonov, Abdulla Avloniy va boshqalar yangi usul maktablari uchun darsliklar yozib, nashr etishgan.

Matbuoti

Jadidchilik harakati davomida ularning o'z matbuoti shakllandi. Jadidlar Toshkentda 1905–1906-yillarda „Taraqqiy“ (muharriri – Ismoil Obiliy), „Xurshid“ (muharriri – Munavvarqori), 1907–1908-yillarda „Shuhrat“ (muharriri – Abdulla Avloniy), „Osiyo“ (muharriri – Ahmadjon Bektemirov), „Tujjor“ (muharriri – Saidkarimboy Saidazimboy o'g'li), Buxoroda 1912-yilda „Buxoroyi sharif“ (muharriri – Mirzo Jalol Yusufzoda), „Turon“ (muharriri – G'iyos maxsum Husayniy), Samarqandda 1913-yilda „Samarqand“ (muharriri – Mahmudxo'ja Behbudiy), Toshkentda „Sadoyi Turkiston“ (muharriri – Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev), Qo'qonda „Sadoyi Farg'ona“ (muharriri – Obidjon Mahmudov) gazetalari va Samarqandda 1913–1915-yillarda „Oyina“ (muharriri – Mahmudxo'ja Behbudiy), Toshkentda 1915-yil „Al-isloh“ (muharriri – Abdurahmon Sodiq o'g'li) jurnallarini nashr qilishdi. Shuningdek, 1917–1918-yillarda Toshkentda „Najot“ (muharriri – Munavvarqori), „Kengash“ (muharrirlari – Ahmad Zakiy Validiy va Munavvarqori), „Turon“ (muharrirlari – M. Afandizoda, Abdulla Avloniy), „Ulug' Turkiston“ (muharriri – Kabir Bakirov), „Shuroy Islom“ (muharriri – Abdulla Battol), „Turk so'zi“ (muharriri – Temirbek Xudoyorxonov), „Turk eli“ (tahririyati), Samarqandda „Hurriyat“ (muharrirlari – Mardonqul Shohmuhammadzoda, Akobir Shomansurov, Fitrat), Qo'qonda „Tirik so'z“ (muharriri – Obidjon Mahmudov), „El bayrog'i“ (muharriri – Bo'lat Soliyev) gazetalari va „Kengash“ (muharriri – Hamza), „Yurt“ (muharriri – Ashurali Zohiriy) jurnallari chop qilindi.

Matbuot millat dilidagi gaplarni o'z sahifalariga ko'chirish bilan kifoyalanmay, qanday ishlarni birinchi navbatda amalga oshirish masalasini o'rta qo'ydi. 1909-yilda Toshkent yosh ziyolilari tomonidan „Jamiyati xayriya“ tashkil etildi. Mahalliy yoshlardan davlat mahkamalarida, sanoat, tijorat sohasida ishlaydigan mutaxassislar tayyorlash, kambag'al musulmonlarga madaniy-ma'naviy yordam ko'rsatish masalasi qo'yildi. Bu millatning boshqa xalqlar ichiga singib ketmasligi yo'lida ko'rilgan tadbirlar edi.

Bu davrda jadidlar ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida ko'rindilar. Xalq ularda o'z himoyachilarini his etdi. Sirdaryo viloyatidan Peterburgda o'tadigan Davlat dumasiga a'zolikka saylangan Abduvohidqori

Abduraufqoriyevga Toshkent, Chimkent va boshqa joylarning aholisidan 12 moddadan iborat talabnomani Davlat dumasiga topshirish yuklandi. Bu hujjatda ko'pgina ijtimoiy talablar ko'rsatilgan edi. Abduvohidqori 1907-yil 20-fevral-3-iyunda Peterburgda Sadri Maqsudiy, Muso Jorilloh, Alimardon To'pchiboshev kabi musulmon ziyolilari bilan tanishib, musulmon fraksiyasining raisi Biglovga Turkiston xalqi dardini yetkazdi. Biroq Abduvohidqori, oradan ko'p o'tmay, qamoqqa olindi va Tulaga surgun qilindi.

Shu tarzda, jadidchilik harakati 1906–1916-yillarda o'zining asosiy yo'lini belgilab oldi. Jadidlarning nashrlari xalqni yangi davr boshlangani bilan tanishtirar ekan, o'zligini anglab, uyushishga chakirdi. O'lka moddiy va ma'naviy boyliklari talanayotganini oshkor qildi. Cho'lpon she'r va maqolalarida mustamlakachilarning asl qiyofalarini ochib tashladi. Mashhur advokat Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev oliy o'quv yurtini tashkil etish, soliqlarni tartibga solish, bolalar tarbiyasiga jiddiy e'tibor berish masalasini bayon qildi. Lev Tolstoy bilan fikrlashish chog'ida mashhur yozuvchini yon berishga majbur etgan Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev chor hukumati ma'murlarining poraxo'rliigi va zolimligini fosh etib, ayrimlarini davlat ishidan chetlatishga erishdi. Musulmon aholisiga amaliy tarzda yordam berib, mavjud hokimiyat qonun-qoidalarini tushuntira bordi.

Jadid matbuoti o'z vakillarining fikrlarini e'lon qilar ekan, xalqni „har vaqt g'aflat uyqusidan uyg'otuvchi millat ongining ochqichi“ ekanligini namoyon etish bilan birga Turkiston xalqini hur fikrlashga va katta siyosiy kurashga hozirlay oldi. Bu davrda „Erk“, „Turon“, „O'qituvchilar jamiyati“ kabi uyushmalar paydo bo'ldi. Munavvarqori aytganidek, „Ularning butun umidi Rossiyadagi inqilob jarayonida mahalliy aholini milliy, diniy cheklash va jabrlashdan ozod qilish, ularning haququqlarini ovrupoliklar bilan tenglashtirish, xilma-xil maktab va matbuot ishlari hamda turli-tuman jamiyatlar tashkil etishga keng imkoniyat yaratib berishga qaratilgan edi“.

Jadidlar bu davrda „Ozodlik, tenglik va adolat“ shiori ostida ishladilar. Ularning 1916-yil mardikorlikka olish voqeasiga munosabati g'oyatda e'tiborga molikdir. Mardikorlikka olish – Birinchi jahon urushi ketayotgan joylardagi ishlarga turkistonliklarni jalb qilish oq podshoning 1916-yil 25-iyun farmoniga muvofiq amalga oshirildi. Bu kutilmagan tadbir, birinchidan, 1865-yil shartnomasiga zid edi. Ikkinchidan, general Aleksey Kuropatkinning xulosasiga qaraganda, „Aholi va ma'muriyat turar joydan tashqaridagi ishlarga mutlaqo tayyorlanmagan va

bunday shoshilinch amalga oshirilgan tadbir og‘ir tartibsizliklarni keltirib chiqargan“. Aholi uchun ana shunday musibatli paytda jadidlarning ko‘zga ko‘ringan namoyandalaridan Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev („Turkiston mardikorlikka olish qo‘mitasi“ raisi) va millatparvar boy Mirkomilboy Mirmo‘minboyev Rossiya jamoatchiligining e‘tiborini bu masalaga jalb etish, farmonni bekor qildirish uchun Peterburgga yo‘l oldilar. Davlat dumasining 1916-yil 13- va 15-dekabr kunlari o‘tgan majlisida Nikolay IIning 25-iyundagi farmoni Rossiya imperiyasining qonunchiligida ko‘rsatilgan hollarga zid ravishda qabul qilingani tan olindi. Farmon Dumada muhokama qilingunga qadar iyun—avgust oylarida jadidlar harakati orqali bir necha eshelon to‘xtatib qolindi. Jadidlarning mardikorlarni qaytarishga urinishlari 1917-yil fevral inqilobi boshlanishi bilan to‘la amalga oshdi. Bu hodisa el orasida ularning obro‘cini ko‘tardi. Mazkur holat jadidlar ma‘rifatparvarlikdan siyosiy kurashga allaqachon o‘tganliklarini bildirar edi.

Panturkizm

1917-yil jadidchilik harakati o‘zining yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Fevral inqilobidan so‘ng o‘zbek, tatar va qozoqlar birlashishga ahd qiladilar va „Turon“ uyushmasi zaminida „Shuroi Islomiya“ jamiyati tuzildi (asoschilari Munavvarqori, Abduvohidqori Abduraufqoriyev, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev). 1917-yil 14-martda ish boshlagan bu jamiyat qishloq va shaharlarga targ‘ibotchilar yuborib, ozodlik, tenglik haqida tushuntirish olib borish, saylov to‘g‘risida ma‘lumot berish bilan shug‘ullandi. Uning dasturini Munavvarqori yozgan edi. Jadidlar joylarda „Shuroi Islomiya“ tizimi yaratilishining tashabbuskori bo‘ldilar. Turkistonga muxtoriyat maqomini berish harakati Turkiston mustaqilligi uchun kurashga aylandi.

Turkiy xalqlarni birlashtirish g‘oyasi kun tartibidan mustahkam o‘rin oldi. O‘zbek, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, boshqird, tatar, turkman kabi negizi bitta xalqlarni birlashtirish va shu asosda federativ yoki muxtoriyatli davlat qurish masalasi bo‘y ko‘rsata bordi. Ammo, Munavvarqori so‘zi bilan aytganda, ko‘pgina kishilar jumhuriyat bilan muxtoriyat o‘rtasidagi farqni tushunmagan edi. Xususan, Turkiston namoyandalari chin ma‘nodagi respublikani barpo etish va uning davlat tarkibini tashkil etishga to‘liq tayyor bo‘lishmagan. Qozoq va boshqird namoyandalari – Mustafo Cho‘qay, Zakiy Validiy va boshqalar Peterburg ularga hech qachon mustaqillik ham, muxtoriyat ham

bermasligini sezgach, Turkistonga kelib, mahalliy jadidlar bilan birga ish boshladilar.

Toshkentda „Sho‘roi Islomiya“, „Turon“, „Sho‘roi Ulamo“, „Ittifoqi muslimin“, Qo‘qonda „G‘ayrat“, Buxoroda Yosh buxoroliklar, Xivada Yosh xivaliklardan tashqari, Samarqandda „Ittifoq“, „Mirvaj ul-islom“, „Miftah ul-maorif“ kabi tashkilotlar faoliyat ko‘rsata boshladi. Bularning ijtimoiy-siyosiy yo‘nalishini belgilashda Munavvarqori, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Majid Qori Qodiriy, Ashurali Zohiriy, Zakiy Validiy, Mustafo Cho‘qay, Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev, Sherali Lapin, Mirkomilboy Mirmo‘minboyev, Obidjon Mahmudov, Polvonniyoz hoji Yusupov, Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov va boshqalar faollik ko‘rsatdilar.

„Sho‘roi Islomiya“ning tashabbusi bilan 1917-yil 16-22-aprel kunlari Butun Turkiston musulmonlarining 1-qurultoyi chaqirildi. Qurultoy ishtirokchilari bir qancha masalalar qatorida Turkiston o‘lkasining davlat maqomi masalasini ham muhokama qildilar. 1-qurultoyda Turkiston o‘lka musulmonlari Sho‘rosi (Kraymussovet) – Milliy markazni tashkil etishga qaror qilindi. Milliy markazga rais bo‘lib Mustafo Cho‘qay, unga o‘rinbosarlar qilib Validiy va Asadullaxo‘jayev saylanadi. Bu esa tashkilotlarni birlashtirish bilan birga milliy ozodlik harakatini izga solib, tashkiliy jihatdan markazlashtirar edi.

Milliy markazning 1917-yil 12-iyunda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida barcha jamiyat va uyushmalarning Markaziy musulmon deputatlari Sho‘rosiga bo‘ysunishi haqida Nizom qabul qilinadi. Markazning maqsadi xalqning eng quyi qatlamlari – mardikor va dehqonlarga to‘liq huquq berish va Turkiston musulmonlarini madaniy, ilmiy, iqtisodiy va g‘oyaviy tarbiyalash edi.

1917-yil aprel-iyun oylari orasida jadidlar ko‘pgina siyosiy masalalarni va ularga o‘z munosabatlarini belgilab oldilar. Pirovardida hududiy muxtoriyat uchun siyosiy vaziyat pishib yetilganini anglab yetdilar.

1917-yil 1-11-mayda Moskvada bo‘lgan Butun Rossiya musulmonlarining 1-qurultoyi bergan turtki natijasida muxtoriyat masalasi yanada jiddiylashdi. 1917-yil 12-14-iyulda Farg‘onada bo‘lib o‘tgan musulmon tashkilotlarining qurultoyida dasturiy masalalar ko‘rib chiqildi. Unda „Turk Adami Markaziyat (Federalistlar)“ firqasining dasturi (maromnomasi) va 22 moddadan iborat nizomi qabul qilindi.

1917-yil 17-20-sentabrda Toshkentda bo‘lib o‘tgan Turkiston va Qozog‘iston musulmonlarining qurultoyida „Shuroy Islomiya“ va „Sho‘roi Ulamo“, „Turon“ va boshqa siyosiy tashkilotlarni birlashtirish yo‘li bilan „Ittifoqi muslimin“ siyosiy partiyasini tuzishga kelishildi.

Turkistonni boshqarish shakli to‘g‘risidagi masala 1917-yil 26-28-noyabrda Qo‘qonda bo‘lgan Turkiston o‘lka musulmonlarining favqulodda 4-qurultoyining diqqat markazida turdi. Muxtoriyat va mustaqillikni e‘lon qilish fikrini hamma qo‘llab-quvvatladi. Turkiston Muxtoriyati hukumati (raisi – Muhammadjon Tinishboyev, so‘ngra Mustaf o Cho‘qay) tashkil qilindi. Fitrat, Cho‘lpon, Hamza singari jadid shoirlar Turkiston Muxtoriyatini alqab, satrlar bitishdi.

Sovet hukumati o‘rnatilgandan keyingi ahvoli

1918-yil fevralda Turkiston Muxtoriyati bolsheviklar tomonidan qonga botirilgach, jadidchilik harakati kuchli o‘zgarishga uchradi. Sovet rejimi bilan murosa qilishni xohlamagan Turkiston jadidlarining katta qismi istiqlolchilik harakati saflarida va yashirin milliy tashkilotlarda faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, ayrimlari sovet hukumati idoralarida ish boshlashga majbur bo‘ldilar.

Buxoro amirligi va Xiva xonligida ahvol sal boshqacharoq kechdi. 1920-yilda qizil armiya har ikki davlat hududiga bostirib kirdi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi va Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tuzilib, jadidlar hokimiyat tepasiga kelishdi. Demak, 1920-yildan jadidchilik harakati o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga, ya‘ni sovetlar bilan murosa yo‘liga qadam qo‘ydi.

1920-yil 1-7-sentabrda Bokuda Sharq xalqdari qurultoyi chaqirildi. Qurultoyda qabul qilingan qarorlar Turkiston xalqlarining keyingi taqdirida muayyan rol o‘ynadi. Unda Munavvarqori, Turor Risqulov, Cho‘lpon, Salimxon Tillaxonov, Rajab Muhamedov, Qudratilla Yunusov, Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov, Obidjon Mahmudov, To‘raqul Jonuzoqov, Zayniddin qori Nasriddinov, Hoji Safo Jo‘raboyev, G‘ozi Yunus kabi turkistonlik millat fidoyilaridan jami 90 kishi ishtirok etdi. Qurultoy ishida Turkiyadan kelgan va shaxsan Leninning o‘zi yuborgan Anvar posho ham qatnashdi. Biroq, mazkur qurultoy bolsheviklarning Angliyaga qarshi qaratilgan do‘q-po‘pisasi ekanligi majlislarda ayon bo‘ldi. Shu bois turkistonlik 40 nafar delegat qurultoy tugagach, o‘zaro kengash o‘tkazib, unda „Turkistondagi sovet hokimiyatiga qarshi tashviqot ishlari“ni avj oldirishga va „Oktabr inqilobining uch yilligi kunida umumxalq

qo'zg'oloni ko'tarish"ga axd qildilar. Biroq, ularning bu rejasi to'liq amalga oshmadi.

Turkiston jadidlari faoliyati butun o'lkani qamraydigan, inglizlarning skauting maktab dasturiga yaqin dastur asosida ishlaydigan „Turon kuchi“, „Turk kuchi“, „Temur“, „Izchilar“, „Lochin“ kabi guruhlarini tuzdilar. Bu guruxlar o'rta maktab ta'limi, hunar, san'atdan tashqari, harbiy mashqlar bilan shug'ullanib, sho'rolarga asosiy zarba beruvchi kuch sifatida ko'rina boshladi. 1920-yil sovet rejimi bu guruxlar faoliyatini tugatdi.

Farg'ona va Toshkentdagi voqealar yakuni jadidlarning umidlarini so'ndira olmadi. Ular Buxoro respublikasi rahbarlari bilan birgalikda ish boshladilar. Buxoroda jadid taraqqiyparvarlar firqasi tuzildi. Bu firqa dasturiga ko'ra, davlatni jumhuriyat raisi (prezident) va parlament boshqarishi ko'zda tutilgan edi.

1921-yil 2-5-avgustda Buxoroda Validiy boshchiligida Turkiston milliy birligi tashkiloti tuzildi. U istiqlolchilik harakatini jipslashtirishda muhim rol o'ynaydi. Turkiston milliy birligi tashkiloti bilan Munavvarqori rahbarligidagi „Milliy ittihad“ (1919-yil tuzilgan) tashkiloti o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatdi. Har ikki tashkilotning asosiy maqsadi Buxoro respublikasi, umuman, Turkiston mintaqasini sovetlashtirish va ruslashtirish ta'siridan saqlab qolish, Turkistonning mustaqilligiga erishish bo'lgan. 1925-yil „Milliy ittihad“ tashkiloti asosida „Milliy istiqlol“ tashkiloti tuziladi.

So'nggi yillari

Jadidchilik harakatining so'nggi yillari faol siyosiy kurashlar bilan ajralib turmaydi. Bu davrda sovet rejimi turli siyosiy ishlar („O'n sakkizlar guruhi“, „Inog'omovchilik“, „Qosimovchilik“, „Badriddinovchilik“ va boshqa) tuzib, milliy ziyolilarni ommaviy ravishda qatag'on qilishga kirishdi. 1929-yil noyabrda Munavvarqori boshchiligidagi 38 kishining qamoqqa olinishi (keyinchalik ularning soni 87 kishiga yetgan) bilan jadidchilik harakatiga kuchli zarba berildi.

Jadidchilik harakati siyosiy ma'rifatparvarlikdan jadid taraqqiyparvarlar firqasi darajasiga ko'tarila oldi. Bu harakat hamda firqa a'zolari o'z faoliyati va dasturiga ko'ra, sho'ro adabiyotlarida aytilganidek, „bir hovuch boylar manfaatiga xizmat qiluvchi liberal burjuaziya vakillari“ emas, balki

Turkistonning barcha xalqlari taqdirini o'ylab ish ko'rgan demokratik jarayonning namoyandalari edi.

Turkistonda sovet hokimiyati zo'ravonlik yo'li bilan o'rnatilgach, jadidlarning bir qismi faol siyosiy hayotdan chetlashib, faqat badiiy ijod bilan shug'ullandi (Abdolvohid Burhonov, Abdulla Avloniy, Sadriddin Ayniy va boshqalar). Ayrim jadidlar sovet idoralari madaniy-ma'rifiy shohobchalarida mehnat qilishdi (Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaye, Munavvarqori, Hamza, Sa'dullaxo'ja Tursunxo'jaye, Toshpo'latbek Norbo'tabekov va boshqalar). Ba'zi jadidlar „mahalliy kommunistlar“ sifatida yuqori davlat va hukumat lavozimlarida ishlashni davom ettirdi (Fayzulla Xo'jaye, Abdulqodir Muhiddinov, Nizomiddin Xo'jaye va boshqalar). Ayrim jadidlar bo'lsa, Turkistondagi istiqloqlilik harakati saflariga borib qo'shildi va xorijga muhojirlikka jo'nab ketdi (Usmonxo'ja Po'latxo'jaye, Sadriddinxon Sharifxo'jaye, Abdulhamid Oripov va boshqalar).

Jadidchilik harakatining barcha taniqli namoyandalari (Sadriddin Ayniydan tashqari) 30-yillarda sovet mustabid rejimi tomonidan amalga oshirilgan qirg'in natijasida halok bo'ldi. Jadidchilik harakatiga sovet davrida „millatchilik“, panturkizm, panislamizm tamg'alari bosilib, qoralandi. Jadid adabiyotini o'qish taqiqlandi.

O'zbekiston mustaqilligidan keyingi talqin

Sovet davrida yozilgan adabiyotlarda jadidchilikka „burjua-liberal harakat“ deb ta'rif berilgan. SSRI parchalanib ketganidan keyin jadidchilik harakati va uning namoyandalari nomi qayta tiklandi. Tarixchi, adabiyotshunos, tilshunos, faylasuf, huquqshunos, san'atshunos va pedagog olimlar jadidlarning ilmiy va adabiy merosini o'rganishda dastlabki natijalarni qo'lga kiritishdi. Mustaqillik yillarida Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Avloniyning 2 jildli, Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Sidqiy Xondayliqiy, Ibrat, Ajziy, So'fizodaning 1 jildli, shuningdek, Fayzulla Xo'jaye, Munavvarqori, Polvonniyoz hoji Yusupovning asarlari chop qilindi. Jadidlarning 20 ta mashhur vakili kiritilgan „Unutilmas siymalar. Jadidchilik harakatining namoyandalari“ (Toshkent, 1999) albom-kitobi nashrdan chiqdi. Ularning faoliyati darslik va qo'llanmalarga kiritildi.

1999-yil 16-18-sentabrda Toshkentda „Markaziy Osiyo 20-asr boshida: islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash (Jadidchilik,

Muxtoriyatchilik, Istiqlolchilik)“ mavzuida xalqaro konferensiya o‘tkazilib, unda AQSH, Germaniya, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Turkiya, Rossiya, Hindiston va boshqa mamlakatlardan kelgan nufuzli olimlar jadidchilik va istiqloqlilik harakatlari to‘g‘risida jahon ilm-fanida to‘plangan so‘nggi xulosalar yuzasidan o‘zbekistonlik hamkasblari bilan o‘zaro fikr almashdilar. Jadidchilik harakati jahonshumul ahamiyatga molik hodisa ekanligi e‘tirof qilindi. Konferensiyada ushbu muammoni tadqiq qiluvchi xalqaro ilmiy kengash tuzildi

ABDULLA AVLONIY IJODIY MEROSI (1878-1934)

Abdulla Avloniy 1878-yilning 12-iyun kuni Toshkent shahridagi Mergancha mahallasida to‘quvchi Miravlon oilasida tug‘ildi. Abdulla 1885-yilda O‘qchidagi eski maktabda, 1890-yilda shu mahalladagi madrasada o‘qiydi. Lekin oilaviy sharoiti sababli 1891-yildan boshlab u faqat qishda o‘qib yozda mardikorlik qilgan. Otasi vafot etgach, oilani boshqaradi, o‘gay ona va ukasi bilan yashaydi.



Abdulla Avloniy.

Avloniy 1894-yildan boshlab ijod qila boshlaydi. Gazeta va jurnal o‘qiydi. 1904-yili esa jadidlar to‘dasiga a‘zo bo‘lib kiradi. Mirobodda jadid maktabini ochadi. 1909-yili «Jamiyati xaytiya», 1913-yil «Turon» teatr to‘dasini, Xadrada «Maktab kutubxonasi» kitob do‘koni tashkil etadi.

1917-yil fevral inqilobidan so‘ng «Turon» gazetasini ta‘sis etdi. Oktabr to‘ntarishi va kommunistik partiya g‘oyalariga ishongan Avloniy «Ishtirikiyun» gazetasi tashkilotchilaridan biri bo‘ldi. 1918-yilda Eski shahar ijroiya qo‘mitasi raisi, 1924-1929-yillarda harbiy maktabda, 1925-1934-yillarda SAGU va SAKU ga ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug‘ullandi. Abdulla Avloniy 1934-yilda 25-avgustda Toshkentda vafot etdi.

Avloniyning ijodiy va ilmiy faoliyati murakkab va ziddiyatlidir. O‘zbek jadidchilik harakatining vakili sifatida adabiyotga kirib kelgan yozuvchi keyinchalik ijodiy hammaslamlar safini tark etib, o‘z hayotini kommunistik partiya va sovet davlatiga xizmat qilishga sarfladi. Shunga qaramay, uning ijodiy va ma‘rifatparvarlik faoliyati katta ahamiyatga molikdir. Avloniy adabiy merosi 3 qismdan: she‘rlar, dramalar hamda axloq va odob

masalalariga bag'ishlangan asarlardan iborat. Uning jurnalistik faoliyati esa hali o'rganilmagan va maqolalari to'planmagan.

Avloniyning 1917-yilgacha yozgan sh'rlari «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» nomli 6 qismdan iborat to'plamga jamlangan. Ularda shoir xalq ommasi orasida tarqalgan giyohvandlik, qimorbozlik kabi illatlarni fosh etib, uni jaholatdan ma'rifatga olib chiqishni orzu qilgan.

Marizing bir tarafdin, bir tarafdin xorsan, millat.

Badandan doimo qon oldirar bemorsan, millat

Tiling yo'q gar qulog'ing surati devorsan, millat

Ko'zing och, yotma g'aflatdan o'son millat, uson millar,

Toparsan birla avlodin omon millat, omon millat.

Avloniyning «Oila munozarasi» she'ri esa «Turon» truppasi repertuaridan joy olgan edi. U «O'z maishatimizdan», «O'z turmushimizdan», «To'y haqinda», «Ko'knori va qimorboz» kabi she'rlarida milliy turmushning xunuk lavhalarini tasvirlab, xalqni ma'rifatga chorladi. Masalan, «Millat haykaliga xitob» she'rida shunday yozadi:

Tur, ey, millat, uyqudan hasratlashayluk,

Ilm uyiga kirmoqg'a suhbatlashayluk.

Yotma, millat uxlama, bedorlashayluk,

Milliy ishlar ishlarga bel bog'lashayluk

Avloniyning revolyutsiyadan keyingi she'riy ijodini katta badiiy qiymatga ega, deb bo'lmaydi. Lekin uning revolyutsiyagacha yozgan she'rlari o'zbek uyg'onish davri adabiyotining mulki bo'lib qoladi.

Avloniy dramaturgiya sohasida ham samarali ijod qildi. 1914-yilda «Advokatlik osonmi?», 1915-yili «Pinak», 1923-yilda «Biz va siz», 1920-yillarda esa «Portugaliya inqilobi», «Sezd» kabi pessalarni yozdi.

Avloniy 1912-1917-yillari «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Turkiy Guliston yohud axloq», «Maktab Gulistoni» darsliklarini bir necha marta nashar qildi.

1913-yil yozilgan «Guliston yohud axloq», «Maktab Gulistoni» asarlari yuqori sinflar uchun yozilgan bo'lib, ifodali va izohli o'qishda darslik-majmua vazifasi o'tagan. Avloniy asarni 2 qismga ajratdi. «Yaxshi xulqlar» deb atalgan birinchi qismda 31 fazilat, «Yomon xulqlar» deb atalgan ikkinchi qismda 20 illatga ta'rif beradi. O'z qarashlarini Arastu, Suqrot, Sino, Sa'diylarning fikrlari bilan mustahkamlaydi.

Avloniy ijodida ma'rifatparvarlik ustuvor ahamiyatga ega. Uning uchun xalqni ma'rifatlashtirish g'oyasi muhim bo'lgan, shu sababli pedagogik

faoliyatga katta ahamiyat bergan. Bugungi kunda Avloniyning «Advokatlik osonmi?» pesasi teatr sahnasidan tushmay kelayapti.

Vatan ozodligi, porloq kelajak orzusi bilan yashagan va bu yoʻlda chinakam fidoyilik koʻrsatgan maʼrifatparvar bobolarimizni hamisha yod etmogʻimiz, ularning hayot yoʻllari, amalga oshirgan ezgu ishlarini bugungi va kelajak avlodlarga ibrat qilib koʻrsatmogʻimiz kerak. Toki yoshlarimiz kimlarning avlodlari ekanini, hayotda kimga ergashishlari, kimlardan ibrat olishlari lozimligini yaxshi bilib olishsin.

Zero, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yurt ravnaqi yoʻlida bunyodkorlik ishlariga daʼvat etish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish milliy istiqlol mafkurasining asosiy maqsadlaridan biridir.

Maʼrifatparvar alloma Abdulla Avloniy haqli ravishda yangi davr oʻzbek madaniyati va adabiyotining asoschilaridan biri sanaladi. U pedagogik fikr taraqqiyotiga salmoqli hissa qoʻshgan ustoz, oʻz asarlarida xalqimizning eng yaxshi anʼanalarini aks ettirgan ijodkor, noshir va jamoat arbobidir.

Abdulla Avloniy 1878 yil 12 iyulda Toshkentning Mergancha mahallasida tugʻildi. 7 yoshidan maktabda, 12 yoshidan madrasada tahsil oldi.

Maʼlumki, Avloniy yashab ijod etgan davr yurtimiz tarixining eng ogʻir, ulkan yoʻqotishlar va chuqur tanazzul davriga toʻgʻri keldi. Shunday boʻlsa-da, Abdulla Avloniy oʻtgan asrning 20-yillarida xalq maorifi va madaniyati taraqqiyotida ishtirok etibgina qolmay, bolalar adabiyoti, oʻzbek milliy teatri, dramaturgiyasi, matbuoti rivojiga ham ulkan hissa qoʻshdi.

Uning hayoti va ijodiga nazar tashlasak, koʻz oʻngimizda oʻz xalqiga sadoqat bilan xizmat qiladigan, uni yuksaklarga koʻtaradigan komil inson tarbiyasiga, uning maʼnaviy qiyofasini shakllantirishga butun umrini baxshida etgan tabarruk siymo gavdalanadi.

Oʻz davrining ilgʻor ziyolilari bilan hamkorlikda diniy bilimlar qatori dunyoviy bilimlarni ham oʻqitadigan yangi usuldagi maktablar ochish, kambagʻal oilalar bolalarini maktablarga jalb etish va ularni kiyim-kechak, oziq-ovqat, daftar-qalam bilan taʼminlash maqsadida xayriya jamiyatlarini tashkil etgani, «Nashriyot» shirkatini tuzib, Xadrada «Maktab kutubxonasi» nomli kitob doʻkonini ochganining oʻzi ham fikrimiz isboti boʻla oladi.

Abdulla Avloniy «usuli jadid», yaʼni ilgʻor usuldagi maktablar uchun «Adabiyot yoxud milliy sheʼrlar», «Birinchi muallim», «Turkiy guliston yoxud axloq», «Ikkinchi muallim», «Maktab gulistoni» kabi darslik va oʻqish kitoblarini yaratdi. Qurʼoni karim suralaridan, hadisi shariflardan namunalar

berilish bilan bir vaqtda, o'zbek xalqining boy pedagogik merosi – ertak, maqol, topishmoq va didaktik hikoyalardan unumli foydalanilgan bu kitoblar xalq orasida ma'lum va mashhur bo'lgan. Abdulla Avloniy pedagogikaga oid asarlarida ham, publitsistik maqolalari, she'r va dramalarida ham dunyo xalqlari madaniyatini, ilm-fanni, maktab va maorifni ulug'lab, xalqni ilmi, madaniyatli bo'lishga undadi.

Bu yil tavalludining 135 yilligi nishonlanayotgan allomaning bundan bir asr muqaddam aytgan so'zlari, teran fikrlari hozir ham o'z dolzarbligi va jozibasini yo'qotmagan. Uning millat mehri bilan sug'orilgan otashin fikrlari ziyo ingan qalblarni mudom bedorlik, ma'rifat va taraqqiyot sari undab kelmoqda.

Abdulla Avloniy o'zining «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida bola tarbiyasini nisbiy ravishda «Tarbiyaning zamoni», «Badan tarbiyasi», «Fikr tarbiyasi», «Axloq tarbiyasi» kabi bo'limlarga ajratgan holda tadqiq etadi.

«Tarbiyaning zamoni» bo'limida tarbiyani bola tug'ilgan kundanoq boshlash kerakligini ta'kidlaydi. «Tarbiyani kimlar qilur?», «Qayda qilinur?» degan savollarni o'rta tashlaydi va ularga javob qidiradi. «Birinch – uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir. Ikkinchi – maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir» deya tarbiyaga hamma – ota-ona, muallim, hukumat va boshqalarning mas'ul ekanini ta'kidlaydi.

Mamlakat taraqqiyoti, davlatning qudratli bo'lishi yosh avlod tarbiyasiga har jihatdan bog'liq deb hisoblagan alloma tarbiya xususiy emas, milliy, ijtimoiy ishdir degan to'xtamga keladi.

Tarbiyani keng ma'noda tushungan Avloniy uni birgina axloq tarbiyasi bilan chegaralab qo'ymaydi. U avvalo bolaning sog'lig'i haqida g'amxo'rlik qilish lozimligiga e'tibor qaratadi. Avloniyning fikricha, sog'lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma'rifatga ega bo'lish uchun avvalo tan salomatligi zarur. «Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadir. Chunki o'qumoq, o'qutmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur».

Abdulla Avloniy bolaning badantarbiyasi, salomatligi masalasida ota-onalarga murojaat qilsa, uning fikr tarbiyasi borasida asosiy mas'uliyat muallimlar zimmasida ekaniga urg'u beradi.

Bolalarda fikrlash qobiliyatini o'stirish, dunyoqarashini shakllantirish muallimlarning «diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas vazifadur... Negaki fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog'liqdur», deydi alloma. Shu bilan birga, Avloniy ta'lim va

tarbiya uzviy bog‘liq jarayonlar ekanini ham ta’kidlaydi: «Dars ila tarbiya orasida biroz farq bor bo‘lsa ham, ikisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur».

Avloniy insonga yaxshilik va ezgulik faqat ilm egallash orqali singadi degan qat’iy fikrni bildiradi. Ilmli, ezgu g‘oya ruhida tarbiyalangan kishidagina vatan tuyg‘usi shakllanadi, ona yurti va ona tiliga muhabbat uyg‘onadi, sadoqati qaror topadi. Bu fazilatlarsiz komil insonni tasavvur etib bo‘lmaydi.

Insonning kamoloti ezgu maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaga bog‘liqligiga ishongan Avloniy uzil-kesil «Tarbiya yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir» degan xulosaga keladi. Ma’rifatparvar bobomizning ushbu so‘zlari, birinchi Prezident Islom Karimovning «Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch» asarida ta’kidlanganidek, «o‘tgan asr boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko‘ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi».

MAHMUDXO`JA BEHBUDIY HAYOTI VA IJODI



Behbudiy XIX asrimizning 1-choragidagi eng mashhur kishilardan edi. Uning nomi Turkiston Gubernatori uyuqda tursin, Oq podshoning o`ziga ham ayon bo`lgan. Buxoro amiri Said Olimxon uni o`zining shaxsiy dushmani deb bilgan.

Mahmudxo`ja Behbudiy 1875-yil 20-yanvarda Samarqand shahrining Yomini mahallasida imom-xatib Behbudxo`ja Solihxo`ja o`g`li xonadonida tug`ilgan. Otasi Ahmad Yassaviy avlodidan.

Otasining buvasi Niyozxo`janing asli kelib chiqishi urganchlik bo`lib, Samarqandga XVIII asr oxirida, amir Shohmurod hukmronlik davrida ko`chib kelgan. 1868-yilda rus askarlari Samarqandga bostirib kirkandan keyin otasi Behbudxo`ja oilasini olib Baxshitepa qishlog`iga ko`chib o`tgan va shu qishloqda imomlik qilgan. Behbudiyning onasi esa muftiy Odil Mansur o`g`lining singlisi bo`lgan.

Behbudiy dastlab otasidan Qur`on ilmini o`rgangan, keyinchalik 6-7 yoshlarida tog`asi Muhammad Siddiq qo`lida o`qib, savod chiqargan. 15 yoshida boshqa bir tog`asi Mulla Odil o`zi mudarrislik qilgan madrasada o`qitib ta`lim bergan

Behbudiy oilasi ma`rifatparvar va ziyoli bo`lgan. Ikki singlisi ham o`qib, tahsil olgan. Qur`onni yaxshi bilgan. Katta singlisi Huriniso „qoribegim“ unvoniga ega bo`lgan 1893-yilda onasi, 1894-yilda otasi vafot etgan.

Behbudiy 18 yoshida Chashmai ob volostida qozi vazifasida ishlagan tog`asi Muhammad Siddiq qo`l ostida mirzalik qilgan. Tog`asi oldida ikki yil ishlagach, mirzalik faoliyatini Kobud volosti qozisi Mulla Zubayr Yaxshiboy o`g`li qo`lida davom ettiradi. Chunki bu paytda tog`asi qozilikdan bo`shatilgan. Mirza va qozilik bilan shug`ullanib, so`ng Jomboyda muftiylik darajasiga ko`tarilgan. Behbudiy Kabut bo`lisida 10 desyatina yerga egalik qilgan. O`ziga to`q va badavlat kishidir.

Behbudiy 1899–1900-yillarda buxorolik do`sti Hoji Baqo bilan birga Makka va Madinada haj safariga otlangan. Shu sababli Rossiya, Arabiston, Misr, Turkiyani kezib chiqqan. Safar jarayonida sayohatning har qanday turi – poyezd, kema, otida va piyoda yurib dunyo kezgan. Sayohat davomida yangi maktab (usuli jadid) ochish fikri mustahkamlanib bordi. 1914-

yili ikkinchi marta haj safari chog'ida Shom, Quddus, Odessa, Istanbul va boshqa shaharlarni kezgan. O'z sayohati davridagi xotiralarini Samarqandda nashr etilayotgan Oyna jurnalining tahririyatiga yuborib turgan.

1903–1904-yillarda Moskva, Peterburg, Orenburg, Qozon va Qrimda bo'lgan. Maorif sohasida Rossiya va tatar arboblari tajribasini o'rgangan. Mahmudxo'ja Behbudiy Ismoil Gaspirinskiy bilan birinchi marta 1897-yilda Gaspirinskiyning Turkistonga sayohati vaqtida Samarqandda tanishgan. Ismoil Gaspirinskiy bilan uchrashuvi keyingi hayotiga ta'sir katta ko'rsatdi. Ismoilbey va Behbudiyning ikkinchi uchrashuvi 1914-yilning yozida yuz bergan. Alloma marg'ilonlik bir kishi bilan Istanbulning Gülhane bog'ida yurganda tasodifan Ismoil Gasprinskiyni ko'rgan va o'xshatgan bo'lsam kerak degan o'y bilan salom berib o'tib ketgan. Orqasidan javob ovozi kelgach, ikki do'st yaqindan ko'rishgan. Gaspirinskiyning taklifi bilan Shahin posho mehmonxonasida yuz bergan suhbat yetti soat davom etgan. Gaspirinskiy suhbat yakunida Behbudiyning Qrimga taklif etadi. Oradan ko'p o'tmay Ismoilbey vafot etgan va Istanbuldagi uchrashuv ularning eng so'nggi qarshilashishi bo'lgan.

Behbudiy 1903-yilda Samarqandning Jomboy tumanida(u yerda kutubxona ham bo'lib unda kitob o'qish bilan birga sotib olish ham mumkin bo'lgan) keyinchalik Samarqand tumaniga qarashli Rajabamin qishlog'ida „usuli savtiya“ maktabini ochadi. Bu maktab Abduqodir Shakuriy xonadonida tashkil etilgan. Maktab o'quvchilarining katta qismi shahardan bo'lganligi va Rajabamin qishlog'iga qatnash qiyinligi sababli keyinchalik bu maktabni Behbudiy o'zining hovlisiga ko'chiradi. Shu davrda u maktab o'quvchilari uchun bir qancha darsliklar yaratgan. 1904-yilda „Risolayi asbobi savod“ („Savod chiqarish kitobi“), 1905-yilda „Risolayi jug'rofiyayi umroniy“ („Aholi geografiyasiga kirish“), 1906-yilda „Muntaxabi jug'rofiyai umumiy“ („Qisqacha umumiy geografiya“), 1908-yilda „Kitobatul atfol“ („Bolalar xati“), 1908-yilda „Amaliyoti islom“, 1909-yilda „Tarixi islom“ kitoblarini nashr ettirgan. „Muntaxabi jug'rofiyai umumiy“ning to'liq nomi „Kitobi muntaxabi jug'rofiyai umumiy va namunai jug'rofiya“ bo'lib, uni chop etish uchun 1905-yilning 24-avgustida Sankt-Peterburg senzurasidan ruxsat olingan. Shundan so'ng 1906-yili Samarqanddagi G. I. Demurov matbaasida bosilgan. sahifalari soni 106 ta. Muallif ushbu „qadim fan“ga tegishli „turkiy, forsiy, arabiy, rusiy lug'atlarga tasnif bo'lgan o'ttiz qadar qadim va jadid qutub va rasoili jug'rofiya, tarixiy, hay'ati riyoziy, tabiiy“lardan va yana juda ko'p turli xildagi manbalardan foydalangan holda yozganini qayd etgan.

1907-yil 23-avgustda Nijniy Novgorodda Rusiya musulmonlarining madaniyat va turmush muammolariga bag'ishlangan qurultoyi chaqirilgan. Qurultoyda Behbudiy turkistonliklar guruhini boshqargan va nutq so'zlagan. Shu yili Behbudiy Rossiya 3-Davlat Dumasining Musulmon fraksiyasiga „Turkiston madaniy muxtoriyati“ loyihasini ko'rib chiqish uchun jo'natgan. Behbudiy loyihada Davlat dumasiga Turkiston musulmon aholisining nufuziga mos vakillar saylanishi, diniy idoraviy ishlarda erkinlikni, Turkistondagi mahalliydan tortib har qanday darajadagi boshqaruvda mahalliy xalq vakillarining ishtirok etishini ta'minlash, turkistonlik xalqlar uchun majburiy hamda bepul umumta'limni joriy qilish, mahalliy aholi roziligisiz Turkistonga Rusiyaning turli hududlaridan aholi ko'chirilishini to'xtatish, rus istilosi natijasida tortib olingan vaqf mulklarini qaytarish singari qat'iy talablarni ilgari surgan. Loyihada yozilgan ism-sharifi hamda mansabi ostiga o'z muhrini ham bosgan. Biroq, uning bu loyihasi 3-Davlat Dumasi tomonidan e'tiborsiz qoldiriladi.

Behbudiy 1913-yildan boshlab matbuot ishlari bilan shug'ullangan. Shu yilning aprelida „Samarqand“ gazetasiga asos solgan. Gazeta ikki tilda: o'zbek va tojik tillarida, haftada 2-marta chop etilgan. Dastlab ikki sahifada bo'lgan gazeta 3-8-sonlarida sahifalari soni to'rttaga yetkazilgan. 400-600 nusxada chop etilgan. 45-soni chiqqach, chor hukumatining tazyiqi hamda moddiy qiyinchiliklar tufayli nashr to'xtagan. Shu yilning 20-avgustidan „Oyna“ jurnali chiqara boshlagan. Haftalik nashrdan chiqqan bu jurnal asosan o'zbekcha bo'lib, maqola (forscha), she'r, e'lonlar (ruscha) ham berib borilgan. Sahifalarida illustratsiyalardan foydalanilgan. Jurnal Tatariston, Eron, Kavkaz, Afg'oniston, Turkiya, Hindistongacha tarqalgan. „Oyna“ jurnalining sohasi keng qamrovli bo'lib, unda millatning tarixi, haq-huquqi, adabiyot hamda til masalalari, jahondagi ahvol to'g'risida maqola va munozaralar berib borilgan. Jurnal faoliyati 20 oy davom etgan. Shu davr mobaynida 68 soni nashr etilgan. Behbudiy kitob nashrini ham yo'lga qo'ygan. A. V. Pyakovskiy 1913-yili Behbudiy bosmaxonasida Fitratning „Bayonoti sayyohi hindi“ asarini rus tiliga tarjima qilib, nashr etgan. Turli xildagi darslik hamda qo'llanmalardan tashqari nashriyotda „Turkiston, Buxoro va Xivaning xaritasi“ni bosib chiqargan. 1917-yili alloma safdoshlari – Fitrat, Ayniy, Ajziy, Muhammadquli O'rinboyev, A. Shomansur bilan birgalikda „Hurriyat“ ro'znomasini, „Zarafshon“ shirkatini hamda „Nashri maorif“ni tashkil etgan.

Behbudiy 1917-yilning 16-23-aprelida Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston musulmonlarining 150 nafar vakili qatnashgan qurultoyda ishtirok etib,

nutq soʻzlagan. Nutqida musulmonlar orasidagi har qanday ixtiloflarga qarshi chiqqan. Ulugʻ maqsad yoʻlida birlashishga chorlagan. Shunday kelishmovchiliklar tufayli „mustamlakot qoidasi ila bizni idora eturlar“ deb ochiq soʻzlagan. 1917-yilning 17-martida qabul qilingan Buxoro amirligida amir boshchiligida islohotlar oʻtkazish talabi toʻgʻrisidagi manifest mualliflaridan biri boʻlgan. Behbudiy shu qurultoyda oʻlka musulmonlar shoʻrosining raisi etib saylangan.

1917-yil 26-noyabrda Behbudiy Qoʻqonda ish boshlagan oʻlka musulmonlarining 4-favqulodda qurultoyida qatnashgan. 27-noyabrga oʻtar kechasi "Turkiston muxtoriyati" eʼlon qilindi. Uning gʻoyaviy rahbarlari biri Behbudiy boʻlgan. Muxtoriyat shoʻrolar tomonidan vahshiyona bostirildi. Behbudiy may oyining boshlarida Samarqandga qaytadi. U yerda koʻp tura olmay Toshkentga keladi.

Bu davrda jadidlar va milliy ziyolilar oldida uch tanlov mavjud boʻlgan: birinchisi: xorijiy davlatga chiqib ketish, ikkinchisi: qoʻlida qurol bilan oʻz fikr va gʻoyalarini himoya qilish, uchinchisi: yangi tuzilgan hukumat bilan murosa yoʻliga kirib, xalq taraqqiyoti, maʼrifati yoʻlida xizmat qilish boʻlgan. Turkiston jadidlarining yetakchisi boʻlgan Behbudiy xalq orasida katta obroʻ-eʼtiborga ega boʻlgan. Yangi tuzilgan hukumat ham buni yaxshi tushungan. Shu sababdan alloma yangi hukumat tarkibida milliy masalalar boʻyicha komissariat organlarida ishlashga rozilik beradi. Komissariatning turkiy millat masalalari boʻlimini boshqarish vazifasida faoliyat yuritgan. Hujjatni mutafakkir Toshxoʻja Ashurxoʻja imzolagan. Behbudiyning oylik maoshi 700 rubl etib belgilangan. Komissar oʻrinbosari sifatida Behbudiy hududdagi maʼnaviy hamda maʼrifiy ishlarga masʼul boʻlgan. Shu davrda uning tashabbusi bilan „Ishtirokiyun“ („Kommunist“) gazetasi nashr qilingan. Behbudiy nashr bosh muharriri vazifasiga Orif Klivliyevni tayinlagan.

Behbudiy 1918-yillari siyosatda faol boʻlgan. Arxiv hujjatlaridan olingan maʼlumotlarga qaraganda, 1918-yilning yozida Toshkentga borib Turkiston hukumatining Qurultoyida qatnashgan. Shuningdek, ocharchilikka barham berish va oziq-ovqat muammosini bartaraf qilishga oid maqolalarni eʼlon qilgan. Partiya va ijro organlarining mutasaddi rahbarlari bilan uchrashgan.

Kuz oylariga kelib Behbudiy sovetlar va kommunistlar olib borayotgan siyosat mafkurasi notoʻgʻri yoʻnalishdaligini anglab yetgan. Bu mafkura mahalliy xalqlar uchun zararli degan qarorga kelgan. Natijada 1918-yilning oktyabr-noyabr

oylariga kelib vazifasidan ketishga qaror qilgan. Hujjatlarda ko'rsatilishicha, Turkiston komissarlar soveti raisi Malkovning imzosi bilan Mahmudxo'ja Behbudiy raislik qilgan sektor tarqatib yuborilgan. 1918-yilning 5-noyabridan boshlab sektor a'zolariga taqdim qilingan tashviqot va targ'ibot olib borish huquqini beruvchi hujjatlar bekor qilingan. Behbudiy ham tashkilotni tark etgan.

Ilmiy tadqiqotchilar fikricha Behbudiy shundan keyin haj safariga otlangan. Behbudiy ijodiy faoliyati davomida ikki pyesa yozgan. Biri nashr etilmagan. 1911-yili birinchi o'zbek dramasi bo'lgan „Padarkush yoxud O'qimagan bolaning holi“ asarini yozgan. Yozuvchi asar sarlavhasidan so'ng qavs ichida janr va mavzusini „Turkiston maishatidan olingan ibratnoma“ deb keltirgan. 3 parda 4 manzarali mazmunan sodda asarda o'qimagan, nodon va johil bolaning o'z otasini o'ldirgani haqida bayon etilgan. Asarning ilk qismlari Buxoroda chiqayotgan „Turon“ gazetasining 1913-yil 1- va 3-yanvar sonlarida bosilgan. Biroq gazeta yopilishi natijasida so'nggi qismlari nashr etilmagan. „Padarkush“ asari Samarqand harbiy gubernatori, general-mayor Ilya Oleshilidzening ko'magi va „matbuot ishlari Tiflis qo'mitasi“ning 1913-yil 23-iyul sanali ruxsati bilan Samarqanddagi Gazarov va Siyanov matbaasida bosilib chiqqan. Kitob muqovasiga „Borodino jangi va Rusiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo'lishining yubileyiga bag'ishlanadi“ degan yozuv qayd etilgan. Pyesa sahnaga chiqishi uchun yana bir yilcha vaqt ketgan. Asar 1914-yilning 15-yanvarida Samarqandda ozarbayjonlik rejissyor Ali Asqarov tomonidan „Qiroatxonai islomiya“ („Islom qiroatxonasi“) kutubxonalar zalida namoyish qilingan. 1914-yil 27-fevralda Abdulla Avloniy boshchiligidagi Toshkentda „Turon“ teatr truppasi tomonidan Kolizey maydonida qaytadan sahnalashtirilgan.

Toshkentdagi namoyish oldidan Munavvarqori Abdurashidxonov teatrning jamiyat oldidagi o'rni va roli haqida nutq so'zlagan. Boy rolini Abdulla Avloniyning o'zi ijro etgan. „Turon“ teatr truppasi 1914—1916-yillarda „Padarkush“ spektaklini butun Farg'ona vodiysida namoyish etgan.

Drama 7-mayda ikkinchi marta sahnaga taqdim etilgan. „Oyna“ jurnalida yozilishicha ikkinchi namoyishda biletlar sotuvidan 384 so'm 50 tiyin mablag' tushgan. Ushbu pulning 184 so'm 50 tiyini spektaklning xarajatiga sarflangan. Ortgan 200 so'mdan 110 so'm qismi maktab islohi uchun, 15 so'mi Buxoriy qishlog'ida joylashgan mulla Jo'raboy ochgan maktabga, 35 so'mi Jomboy tumanidagi Bozoramin Hodixo'ja tashkil qilgan va muallim mulla Komil idorasidagi maktabga, 35 so'mi Abduqodir Shakuriy maktabiga, qolgan 15 so'mi

esa „gorodskoy uchilishche“da o‘qitilayotgan musulmon bolalarga bo‘lib berilgan.

Behbudiy roziligi bilan „Padarkush“ spektakli 1914-yil 5-martda Buxoroning „Turkiston“ saroyida Husayn Najib rahbarligida tatar san’atkorlari tomonidan sahnaga qo‘yilgan.

„Inqilob“ jurnalining 1922-yilda nashrdan chiqqan sonlarining birida B. A. Pyakovskiy „O‘zbek teatri tarixi“ nomli maqola e‘lon qiladi. Maqolada teatrning vujudga kelishi haqida fikr yuritib „O‘zbek teatrining asosini qo‘yib beruvchi samarqandlik Mahmudxo‘ja Behbudiydir“ deb yozgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining publitsistik faoliyatini 1902-yilda Turkistonda mahalliy tilda nashrdan chiqqan rasmiy „Turkiston viloyatining gazetasi“dan boshlagan. Gasprinskiy 1904-yilda bo‘lib o‘tgan rus-yapon urushi munosabati bilan „Tarjimon“ gazetasida musulmonlarni ushbu urushda qatnashayotgan rus hamda musulmon askarlariga yordam ko‘rinishida pul, kiyim-kechak, oziq-ovqat to‘plab jo‘natishga da‘vat qilib bir qancha maqola yozgan. Behbudiy ham aynan shu mavzuda „Turkiston viloyatining gazetasi“ ro‘znomasida kichik maqola e‘lon qilgan. Maqolada Behbudiy Turkiston aholisiga musulmonlar nima uchun rus askarlariga hamda podsho hokimiyatiga yordam berishlari sababini tushuntiradi. Yozuvchi o‘z so‘zlarining isboti ko‘rinishida „gazetlarda yozilib“ turgan „Qrim tarafidagi ba’zi shaharliklar“ mablag‘ va kiyim yig‘ib yuborganliklari hodisasini misol tariqasi keltiradi. Behbudiy „gazetalar“ deganida aynan „Tarjimon“ gazetasini nazarda tutgan va „Tarjimon“da berilgan ma’lumotlardan foydalangan.

„Oyna“ jurnalining ilk sonidayoq Behbudiy „Ikki emas, to‘rt til lozim“ nomli maqolasini e‘lon qilib, o‘zbek, arab, tojik, rus va hatto biror uzoq xorij (masalan, fransuz) tilini bilish shart deya murojaat qilgan. Hurriyat gazetasida e‘lon qilingan „Haq olinur, berilmas“ maqolasida mustaqillikka faqat qo‘lga qurol olib erishish mumkinligini bayon qilgan. „Qozoq qarindoshlarimizg‘a ochiq xat“ maqolasida turli ixtiloflar ichidagi qozoq xalqini birlikka chaqiradi.

Ayni paytda tilning muhofazasi („Har millat o‘z tili ila faxr etar“ – 1914, № 35), o‘zaro munosabatlari („Til masalasi“ – 1915, № 11,12) haqida muhim va zarur maqolalar chop etdi. Adabiy tanqidga jiddiy e‘tibor qilgan. Shiningdek, teng huquqlik masalasini ham ko‘targan („Tanqid saralamoqdir“ – 1914, № 27). Millat sha’nini oyoqosti qiluvchi fikr va qarashlarni rad etib, Turkiston xalqini o‘z nomi

bilan atash kerakligini talab qilib chiqqan („Sart so‘zi majhuldur“ 1915, № 22,23,25,26).

1913-yili yozilgan „Ehtiyoji millat“ maqolasida 30 yil muqaddam Samarqand hududidagi bitta Yomoni mahallasining o‘zida 300 alochabof ishchi bo‘lgani ta’kidlangan. Ayni paytda ulardan bor-yo‘g‘i 30 kishi qolgani va yana 10 yildan so‘ng qolgani ham tugab ketishi xavfi borligi qayd etilgan. „Bu ketishning oxiri yomondur, o‘qimoq va o‘qitmoq kerakdur. Otalardan bolalarga ilmi diniy va ilmi zamonaviy meros qolsun“ deydi alloma.

Behbudiy o‘zbek matbuoti tarixida maqolanavis sifatida o‘z o‘rniga ega. Uning hozirgacha aniqlangan maqolalarining soni 300 ga yetadi. Ular turli xil mavzuda. Ilk maqolalaridan boshlab kommunistik mafkurani rad etgan, „xayoliy“, „bu toifaga qo‘shulmoq biz, musulmonlar uchun nihoyatda zararlik“ deb yozgan edi („Xayrul umuri avsatuhu“ – „Ishlarning yaxshisi o‘rtachasidir“, „Xurshid“ gazetasi 1906-yil, 6-son). O‘zlikni anglashni muhim biladi. "Qabilasini(ng) ismini va yetti otasining otini bilmaydurgonlarni "qulq „marquq“ derlar", deb yozadi („Sart so‘zi majhuldur“, „Oyna“ jurnali, 1914, № 23). 1917-yilning oxiri 1918-yilning boshlarida jadidlar qurgan ilk demokratik davlatchilik namunasi Turkiston muxtoriyatining taqdiri hal bo‘layotgan bir paytda o‘lka xalqlarini birlikka chaqiradi.

Behbudiyning yurt obodligi yo‘lida boshlagan ijobiy ishlaridan biri „Behbudiya“ kutubxonasining tashkil etilishi bo‘ldi. Behbudiy birinchilardan bo‘lib Samarqandda kutubxona faoliyatini yo‘lga qo‘ygan 11-sentabrda Samarqand hokimining rasmiy ruxsati bilan ushbu kutubxona „Yangi rasta“da ochilgan. Biroq kutubxonaning ochilishi haqidagi xabar biroz avval chop etilgan. Bu haqda „Turkiston viloyatining gazetasi“da xabar berilgan edi. 27 bobdan iborat bo‘lgan dastur kutubxonaning barcha rasmiy masalalarini belgilab bergan. Kutubxonaga yillik a‘zolik badali 3 so‘mni tashkil etgan. Kutubxonaning asosiy maqsadi mahalliy musulmon yoshlari va madrasa talabalarini zamonaviy ilmlar bilan shug‘ullanishga undash bo‘lgan.

Kutubxona faoliyatida Mahmudxo‘ja Behbudiya jadid ma’rifatparvarlari Hoji Muin, Vasliy Samarqandiy va pedagog Abduqodir Shakuriy yordam bergan. Tuzilish jihatdan xilma-xil va boy fondga ega bo‘lgan. Chet el davlatlarda nashrdan chiqqan dunyoviy va diniy kitoblar, suratli jurnallar hamda gazetalar, ensiklopediya, lug‘atlar, xarita va atlaslardan o‘qib foydalanish mumkin bo‘lgan.

Kutubxonadagi kitoblar fondi dastlab 200, keyinroq 225 jildga yetgan. Kunda 14 soat davomida ishlagan. Ochilishidan 7 oy o'tib, a'zolari soni 125 kishiga yetgan. 1910-yillarga kelganda faoliyati so'na boshladi. Bunga avvalo o'lkadagi jadidlar va qadimchilar qarama-qarshiligi sabab bo'lgan. Mullalar otanalar bilan suhbatlashib, kofirxona sifatida u yerga borishni taqiqlab qo'yadi. 1912-yilda sanoqli kishi kutubxonadan foydalangan. 1914-yildan moliyaviy qiyinchiliklar boshlanadi. 15 a'zodan iborat yillik yig'ilish paytida kutubxonani saqlab qolish va iqtisodiy muammoni hal etish maqsadida spektakl qo'yishga kelishib olinadi. Teatr tomoshalari ham qadimchilar tomonidan rad etilgach, Kutubxona faoliyati tugaydi. Kutubxona 1908—1914-yillarda faoliyat yuritgan. Behbudiy kutubxonani o'zining uyiga ko'chiradi va Behbudiya kutubxonasi deb nomlaydi. Keyinchalik u yerda chet elda nashr qilingan kitoblarni sotishni ham yo'lga qo'yadi va ularning ro'yxati "Oyna" jurnalida e'lon qilib boriladi

1919-yilda Favqulodda komissiya ayg'oqchilari ko'magi bilan Shahrisabz bekligida Mahmudxo'ja Behbudiy va hamrohlari Muhammadquli O'rinboyev, Mardonquli Shomuhammedovlar qo'lga olingan. Taxminan ikki oycha vaqt o'tib, Qarshiga olib kelinib zindonga tashlangan. Qarshi begi Tog'aybekning buyrug'i bilan bir necha kundan keyin Nuriddinxo'ja Og'aliq Ahmadxo'ja o'g'li tomonidan zindon yaqinida joylashgan „podsholik chorbog'i“da qatl ettirilgan.

Allomaning qatl etilgani haqidagi xabar o'sha paytdagi poytaxt Samarqandga rosa bir yildan keyin yetib keladi. Behbudiyning o'limiga bag'ishlab Abdurauf Fitrat „Behbudiyning sag'anasin izladim“ she'rini, Sadriddin Ayniy „Behbudiy Afandini esga tushirib, qatl va qatlgohga xitoban“, „Behbudiy ruhiga ithof“ va Cho'lpon „Mahmudxo'ja Behbudiy xotirasiga“ nomli marsiyalarini yozgan Behbudiy o'limi arafasida izdoshlariga vasiyatnoma yozib qoldirgani manbalardan ma'lum. (Unda Fitrat, Siddiqiy, Vadud Mahmud, Akobir Mahdum, Abdulqodir Shakuriy bilan birga Ayniyning nomi ham qayd etilgan). So'nggi maktubida „Maorif yo'lida ishlayturg'on mualimlarning boshini silangizlar! Maorifg'a yordam etingiz! O'rtadan nifoqni ko'taringiz! Turkiston bolalarini ilmsiz qo'ymangiz! Har ish qilsangiz jamiyat ila qilingiz! Hammaga ozodlik yo'lini ko'rsatingiz!“ deb xitob qilgan

Mahmudxo'ja Behbudiy 1893-yilda uylanib, to'rt o'g'il hamda bir qiz farzand ko'rgan.

Katta o'g'liga Ma'sudxon deb ism qo'ygan, u 1897-yili tug'ilgan. Mas'udxon ham eski maktabda, ham gimnaziyada tahsil olgan. Ulg'aygach ro'znoma hamda nashriyotlarda tarjimon vazifasida ishlagan. 1933-yilda qatag'on to'liqini natijasida otasi Mahmudxo'ja Behbudiy „xalq dushmani“ deb e'lon qilinadi. Ma'sudxon shundan so'ng ta'qibga uchrab Tojikistonga ko'chib o'tishga majbur bo'ladi. O'sha yerda yashirin ravishda ijod bilan shug'ullangan. 1937-yilda o'rta maktab o'quvchilari uchun adabiyot bo'yicha ikki darslik hamda ikkita darslik xrestomatiyasini yozib nashr ettirgan.

Ikkinchi farzandi Maqsudxon 1911-yili tug'ilgan. Dastlab „usuli jadid“ maktabida o'qigan. Keyin Bokuda joylashgan muallimlar tayyorlash kursida ikki yillik tahsilni tamomlagan. 1932-yili 21 yoshida vafot etgan.

Qizi Parvinaxon (Surayyoxon ham deyishgan) 1902-yili tug'ilgan. 10 yoshigacha Abduqodir Shakuriy tashkil qilgan „usuli jadid“ maktabida o'qigan. Keyinchalik Parvina asosan uyda tahsilni davom ettirib, muallimlardan fransuz va rus tillaridan saboq olgan. Ikki qizi yoshlik chog'ida vafot etgan. O'zi xalq dushmanining qizi tamg'asi ostida kun kechirgan. 1987-yili vafot etgan.

To'rtinchi farzandi Matlubxon 1914-yili tug'ilgan. 1942-yilda Ikkinchi jahon urushiga safarbar qilingan. Urush davrida bedarak yo'qolgan.

- Qarshi shahri 1926–1937-yillar davomida Behbudiy nomi bilan atalgan;
- 1977-yilda „Saylanma“ asarlari chop etilgan;
- Behbudiy asarlari O'zbekistondagi darslik va o'quv qo'llanmalariga kiritilgan;
- Toshkent va Samarqand shaharlaridagi ko'cha va maktablarga nomi berilgan;
- 2006-yilda Samarqandda yodgorlik o'rnatilgan;
- Tojikistonning Xo'jand shahrida Behbudiy sharafiga gimnaziya ochilgan;
- 2020-yilda O'zbekistonda allomaning 145 yillik tavalludi nishonlangan;
- Toshkentdagi Adiblar xiyobonida Behbudiyga haykal qo'yilgan;
- 2002-yilda rejissyor Baqo Sodiqov Behbudiy haqida film suratga olishni boshlagan, keyinchalik bu ish to'xtatilgan. 2020-yilda suratga olish ishlari qayta tiklandi va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni munosabati bilan premyera o'sha yilning 8-dekabrida bo'lib o'tgan;
- 2021-yilning 18-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 13-apreldagi 206-sonli qarori asosida Samarqand shahrida Mahmudxo'ja Behbudiy uy-muzeyi tashkil qilingan.

- 2021-yilda Turkiyaning TRT Avaz telekanali „Köklerin İzinde“ turkumi ostida turkiy dunyo ziyolilarining hayoti va faoliyati yoritilgan filmlar suratga olgan. Filmning 17-qismi allomaga bag‘ishlanib, „Mahmud Hoca Behbudî“ deb nomlangan;
- 2024-yilning 22-noyabrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning dramaturglar uchun Mahmudxo‘ja Behbudiy nomidagi mukofot ta’sis etish haqida qarori imzolangan
- 2025-yilning 3-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning „Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida“gi qarori qabul qilingan. Qarorga ko‘ra, 2025-yilda Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida „Mahmudxo‘ja Behbudiy merosi va jadidlik harakatini o‘rganishning dolzarb masalalari“ mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi hamda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatrida Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligiga bag‘ishlangan tantanali adabiy-ma’rifiy xotira kechasi tashkil etilishi belgilangan.

Abdurauf Fitrat



Abdurauf Fitrat (1886, Buxoro shahri, Buxoro amirligi 4oktabr, 1938, Toshkent shahri, O‘zbekiston SSR) — o‘zbek tarixchisi, filolog, tarjimon, yozuvchi, dramaturg va shoir, zamonaviy o‘zbek tili va adabiyoti asoschilaridan biri, O‘rta Osiyo jadidchiligining taniqli vakillaridan biri, birinchi o‘zbek professori (1926). Jadidchilik milliy ma’rifatparvarlik harakatining tarafdori. Turkiyada o‘qigan. Inqilobga qadar O‘rta

Osiyoni Rossiyadan ozod qilinishi harakatlarida faol qatnashgan, politsiya nazorati ostida bo‘lgan. Turkiyadagi „Yosh turklar“ harakatidan ilhomlanib, Buxoroda „Yosh buxoroliklar“ partiyasini tuzgan, uning ma’naviy rahnamosiga aylangan. Do‘sti va maslakdoshi Munzim bilan hamkorlikda buxorolik 70 nafar yosh turkistonliklarni Germaniyaning bir qator oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga yuborgan (1922)

1886-yilda Buxoro shahrida ziyoli oilasida tugʻilgan, adibning otasi savdogarchilik bilan shugʻullangan boʻlib, 1918-yilgacha Qashqarda turib qoladi. Yosh Abdurauf asosan onasi Mustaf o Bibi (Bibijon) tarbiyasida qoladi, undan Navoiy, Uvaysiy, Zebunniso, Bedil, Fuzuliy kabi yirik shoirlarning gʻazallarini tinglaydi.^[2] Dastlab eski maktabda, keyinchalik, Buxorodagi Mir Arab madrasasida tahsil olgan. 1902–1903-yillarda haj safariga chiqqan, uni ado etgach Arabiston, Anatoliya (zamonaviy Turkiya), Kavkazorti, Eron, Afgʻoniston, Hindiston boʻylab sayohat qilgan. 1906–1908-yillarda Rossiyaning Qozon, Nijniy Novgorod, Yaroslavl, Moskva, Petrograd shaharlarida boʻlgan. XX asr boshlarida bujudga kelgan „Tarbiyai atfol“ jamiyati koʻmagida 1908–1913-yillarda Istanbuldagi Voizon madrasasida tahsil olgan va qizgʻin ijod qilgan.

1908–1913-yillarda Turkiya dorilfununida oʻqiyotganda uning zukko, bilimdonligi professor-oʻqituvchilarni hayratga soladi. Unga Fitrat — Donishmand taxallusini beradilar.

Fitrat oʻqishni Istanbulda davom ettirib yurgan kezlarida, hamyurtlari bilan birgalikda „Buxoro taʼlimi maorif jamiyati“ni tuzgan. Bu jamiyat buxoroliklarning oʻzaro moddiy-maʼnaviy uyushmasi vazifasini bajargan hamda Buxoro va Turkiston maorifining olgʻa siljishiga doir bir qator ishlarni amalga oshirgan. Bu davrda Turkiya „Yosh turklar“ inqilobidan mast davrni oʻz boshidan kechirardi. Turkiyadagi bunday inqilobiy muhit albatta yosh Fitratga ham ijobiy taʼsir koʻrsatdi. U siyosat maydoniga shoʻngʻib ketdi. Bu yerda Fitrat Sharq adabiyoti, sanʼati, tarixini chuqur va atroflicha oʻrganadi. Ilgʻor taraqqiyparvar turk adabiyoti vakillari, turk adabiyoti orqali esa Gʻarb adabiyoti bilan yaqindan tanishadi. Gʻarb va Sharq xalqlari madaniyati, adabiyotlari oʻrtasidagi farqlarni oʻz koʻzi bilan koʻradi, uning sabablarini teranroq anglaydi.

Fitrat vataniga qaytgach, Buxoro jadidlarining tashkilotchilaridan biri sifatida xalqni maʼrifat va madaniyatdan bahramand qilish uchun astoydil kurashdi, xususan u Buxoroning turli tumanlarida oʻqituvchilik qilib, jadidchilik gʻoyalarini keng targʻib etdi. 1915-yildan „Yosh buxoroliklar“ harakatining soʻl qanotiga boshchilik qildi. 1916-yilga qadar buxorolik jadidlar yakdil va yagona jabha boʻlib ish olib borgan boʻlsalar, keyinchalik ular ikkiga boʻlinib ketadilar. Abdulvohid Burhonov boshchiligidagi jadidlarning bir qismi eski tarzda faqat maʼrifat-madaniyat tarqatish yoʻlini tutgan boʻlsa, ularning boshqa boʻlagi Fitrat, Fayzulla Xoʻjayev kabi chet mamlakatlarda oʻqib kelgan yoshlar

omma o'rtasida ma'rifat va madaniyat tarqatish bilan birga amirga qarshi kurashishni ham yoqlab chiqadilar. Bunday bo'linishning asosiy sabablari:

- Turkiston o'lkasi, shu jumladan Buxoro amirligidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatning og'irligi, rus podshosi va amirlikning ikki yoqlama zulmkorlik siyosati;
- bolsheviklarning mahalliy xalq o'rtasida yurgizgan tashviqot va targ'ibotlari ta'siriga ishonuvchanlik;
- mahalliy xalq vakillarining siyosiy vakuumda saqlanganligi, ularning siyosat borasidagi g'oyaviy-nazariy saviyasining yetarli darajada rivojlanmaganligi.

Fitrat 1917-yilgi fevral voqealaridan so'ng jadidlarning Buxorodagi ahvoli murakkablashgach, Samarqandga ko'chib borib 1917-yil aprelidan 1918-yil martigacha chiqib turgan „Hurriyat“ gazetasiga muharrirlik qiladi (1917-yilgi 27-sonidan 1918-yilgi 87-sonigacha), gazeta ishlarini rivojlantirish maqsadida Fitrat nashriyotga O'rta Osiyo jadidchiligining darg'asi, muftiy Mahmudxo'ja Behbudiyni taklif etadi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda Fitrat shu-yillarda „Ittihodi taraqqiy“ tashkiloti Eski Buxoro bo'limining raisi ham bo'lgan.

1917-yilning oktabr oyini „Yurt qayg'usi“ deb baholadi. Ammo nurli kelajakdan umid uzmad. 1917-yil 27-noyabrda e'lon qilingan Turkiston Muxtoriyatini so'ngsiz mehr bilan qarshi oldi. Hatto 27-noyabrni „Milliy laylatulqadrimiz“ deb atadi. Ammo uning bu quvonchi uzoqqa cho'zilmadi, 1918-yilning 19-20-fevralida Turkiston muxtoriyati bolsheviklar va armanlarning „Dashnaksutyun“ partiyasi tomonidan qonga botirildi. Bu voqea tarixda „Qo'qon voqeasi“ nomini olgan.

1918-yil martdagi Kolesov voqeasidan keyin u Toshkentga keldi. Dastlab Xadradagi maktabda, may-iyun oylaridan boshlab Turkiston musulmon dorilfununi qoshida tashkil topgan dorulmualliminda til va adabiyotdan dars berdi. 1919-1920-yillarda Afg'oniston amirligining Toshkentdagi vakolatxonasida tarjimonlik qildi.

Toshkentda u asosan ilmiy, ijodiy ma'rifiy ishlar bilan ko'proq band bo'ldi. Bir qator darsliklar tuzdi, „Chig'atoy gurungi“ nomli ijtimoiy-adabiy tashkilot tuzib, unda faol ishtirok etdi. 1920-yil 9-aprelda „Tong“ jurnalini tashkil etib, yosh ziyolilar avlodini millatparvarlik va vatanparvarlik ruhiyatida tarbiyalashga kirishdi. „Tong“ jurnalining shiori bo'lgan: „Miya o'zgarmaguncha boshqa o'zgarishlar negiz tutmas!“ so'zlari Fitratning shu-yillarda olib borgan faoliyatining maqsad-mohiyatini to'la ifodalaydi. Jurnalda „Chig'atoy

gurungi“ a’zolarining deyarli barchasi ishtirok etdi. Afsuski, jurnal ishi 3-sondan keyin to’xtab qoldi.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil topishi bilan Fitrat 1921-yilda Buxoroga taklif qilinadi va shu-yildanoq maorif noziri vazifasida ish boshlaydi. 1922-yilda xorijiya (tashqi ishlar) noziri, Xalq xo’jaligi Kengashi raisi, Markaziy Ijroya Qo’mitasi raisi o’rinbosari, Xalq nozirlari sho’rosi raisi o’rinbosari, Hukumat plan va smeta tashkiliy hay’atining raisi, BXSР mehnat kengashining Prezidium a’zosi va boshqa lavozimlarda xizmat qildi. U shu davrda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi mablag’lari hisobiga 70 nafar turkistonlik istiqbolli yoshlarning Germaniyaga borib o’qishi, Buxoroda Sharq musiqasi maktabining tashkil etilishi, fan va madaniyatga doir xalq qo’lida sochilib yotgan noyob qo’lyozmalarni to’plashda tashabbuskor bo’ldi. Fitratning sa’y-harakatlari bilan Buxoro Xalq Sovet Respublikasida turk (o’zbek) tili davlat tili deb e’lon qilindi. Davlat teatri tashkil qilinib, bu teatrdan ishlash uchun Toshkentdan Mannon Uyg’ur va Cho’lpon, vaqf ishlarini boshqarish uchun esa Munavvar Qori Abdurashidxonov taklif etildi (1921).

Ammo 1923-yilda Yan Rudzutak boshchiligida Moskvadan kelgan komissiya Fitratni ishdan olib, Rossiyaga „chaqirib olingan“ deb e’lon qildi va Fitrat 1923-1927-yillarda Moskvadagi Sharqshunoslik instituti (1921-yilgacha Sharq tillari instituti deb nomlangan)da ishladi, ilm bilan shug’ullandi. Leningrad Davlat universitetining Sharq fakultetida Turk, arab, fors tili va adabiyoti, madaniyatidan talabalarga dars berdi. Leningrad Davlat universiteti professorligiga saylandi. „Abulfayzxon“, „Bedil“, „Qiyomat“, „Shaytonnig Tangriga isyoni“ kabi asarlar yozib, chop ettirdi. 1927-yilning boshida Rossiyadan qaytgach, 1937-yilga qadar Samarqanddagi Oliy pedagogika instituti (hozirgi Samarqand Davlat universiteti) hamda Toshkentdagi Til va adabiyot institutida faoliyat ko’rsatdi. Fitrat o’z hayoti davomida yuzlab ijtimoiy-publitsistik maqolalar, o’nlab ijtimoiy-siyosiy va ilmiy risolalar yaratdi. U birgina Turkistonda emas, Afg’oniston, Hindiston, Turkiya, Kavkaz, Volgabo’yi matbuotida ham faol ishtirok etdi. Fitratning adabiy merosi boy va rang-barang. U adib sifatida badiiy ijodning barcha turlarida qalam tebratibgina qolmay, o’zbek adabiyotining yangi janr va turlar bilan boyishi, she’r tuzilishining isloh etilishi, adabiy realizmning teranlashishi, davr, jamiyat va xalq hayoti bilan bog’liq bo’lgan muhim ijtimoiy muammolarning o’zbek adabiyotida badiiy talqin etilishiga ulkan hissa qo’shdi.

Fitrat ijodini shartli ravishda uch davrga bo'lish mumkin: **1-davr** 1909–1916-yillarni o'z ichiga olib, Turkiya taassurotlaridan ilhomlangan holda jadid ma'rifatparvari sifatida ijod qilgan. **2-davr** 1917–1923-yillarni qamrab oladi, bu davrda Fitrat milliy istiqlool g'oyalari bilan to'yingan asarlar yozadi. Ijodining **3-davri** 1923–1937-yillarga oid bo'lib, Sho'ro maxfiy xizmatining doimiy nazoratida bo'lgan Fitrat asosan ilmiy va pedagogik ishlar bilan shug'ullanadi.

Fitrat zullisonayn adib bo'lib, adabiyotga shoir va adabiyotshunos sifatida kirib kelgan. Ko'p o'tmay u o'zini dramaturgiya va prozada ham sinab ko'rdi. U „Munozara“ (dastlabki nomi „Hindistonda bir farangi ila buxorolik bir mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadid xususida qilgan munozarasi“) asarini Turkiyaga borishdan oldin, 1905–1907-yillarda yaratgan. „Sayha“ („Chorlov“, „Na'ra“) (fors tilida), „Sayyohi hindi“ („Bayonoti sayyohi hindi“), „Rahbari najot“, „Tarixi Islom“ asarlarini esa Turkiyada tahsil paytida yozgan va „Munozara“ 1908-yilda, „Sayha“ 1910-yilda, „Sayyohi hindi“ 1913-yilda Istanbulda bosilib chiqqan. „Rahbari najot“ va „Oila“ 1915–1916-yillarda Bokuda nashr qilingan. Bu asarlar o'sha davrdayoq xalq orasida keng tarqaldi. Horijiy tillarga ham o'girildi. Masalan, „Munozara“ 1909–1914-yillar orasida turk, ozarbayjon tillarida, „Sayyohi hindi“ rus tilida chop etilgan. „Rahbari najot“ni esa do'sti, shoir va noshir Abdolvohid Burhonov Sankt-Peterburgda nashrdan chiqargan. Bulardan tashqari uning „Mavludi Sharif“, „Abo Muslim“, „Begijon“ asarlari va dastlabki she'rlari „Oyna“, „Taraqqiy“, „Sadoi Turkiston“, „Turon“, „Hurriyat“, „Buxoroi Sharif“ kabi gazeta va jurnallar sahifalarida e'lon qilingan.

Uning „Munozara“ va „Sayyohi hindi“ asarlari XX asr boshlarida Turkistondagi milliy uyg'onish harakatining norasmiy dasturi bo'lib xizmat qilgan va yoshlar dunyoqarashining keskin o'zgarishi va ularning jadidlar safiga kelib qo'shilishiga sabab bo'lgan. Keyinchalik bu asarlar orqali Fitratni millatchilikda, turkparastlikda va islomparastlikda ayblashgan.

Fitratning bizgacha yetib kelgan o'zbek tilidagi she'rlari 1917- va undan keyingi davrlarga oid. Ma'lumki, fevral inqilobidan keyin Turkiston xalqlarining mustaqillikka erishishlari uchun juda qulay fursat tug'ilgan. Fitrat shu davrda xalqni mustamlakachilik kishanlarini parchalab, milliy istiqlool uchun kurashga da'vat etuvchi she'rlar yozishga kirishgan. Ammo an'anaviy aruz vazni, uning nazarida, bunday zamonaviy g'oyani ifodalash, xalqni oyoqqa turg'azish va safarbar etish kuchiga ega emas edi. Shuning uchun ham Fitrat turk va tatar she'riyatlarida shakllangan, o'zbek xalq og'zaki she'riyatida ayrim unsurlari

bo'lgan sochmani milliy adabiyotimizga olib kirdi. O'z ona diyorini ozod va hur ko'rishni orzu qilgan shoir „Yurt qayg'usi“ deb nomlangan bir she'r va to'rtta sochma yozib, ularda hurriyat uchun kurash g'oyasini baralla kuylaydi. Ijodkor mazkur sochmalarida Turkistonni xo'rlangan va xorlangan Ona obrazida tasvirlab, bu jabrdiyda Onani zulmkorlardan xalos etish uchun sohibqiron Amir Temur singari millat fidoyilarini qo'msaydi. U „Yurt qayg'usi“ sochmasining birinchi qismida o'z qahramoni tilidan Amir Temurga murojaat qiladi.

Bunday murojaat Fitratning „Temur sag'anasi“ dramasida ham uchraydi. Bu asarlardagi asosiy g'oya — ona yurtini, Vatanni ulug'lash, xalq, millatning ozodligi va erkinligidir. Zero, ma'rifatga intilgan inson uchun, ayniqsa shoir uchun, bir tomondan amir istibdodi, ikkinchi tomondan chor mustamlakasi zulmi ostida ezilgan xalqni, toptalgan yurtini ozod ko'rishdan ham ulug' niyat bo'lishi mumkinmi? Misol uchun „Yurt qayg'usi“ sochmasining ikkinchi qismini keltirish mumkin.

Bulardan tashqari Fitrat o'zbek tilining grammatikasini o'rganish ishlarini boshlab bergan va shu soha rivojiga katta hissa qo'shgan. U 1918-yilda Shokirjon Rahimiy va Qayum Ramazon bilan hamkorlikda „Ona tili“ darsligini yaratdi. 1921-yilda Toshkentda bo'lib o'tgan Til va imlo qurultoyida Fitrat o'zbek tilining sofligini ta'minlash va rivojlantirishga qaratilgan bir qancha takliflarni o'rtaga tashladi. U 20-yillarda o'zbek tili tabiatini o'rganishda davom etib, „O'zbek tili qoidolari to'g'risida bir tajriba: Sarf“ (1925), „O'zbek tili qoidolari to'g'risida bir tajriba: Nahv“ (1926) darsliklarini yaratdi va bu darsliklar 1930-yilga qadar bir necha marta nashr etildi. Olim o'zbek tili morfologiyasi va sintaksisiga bag'ishlangan bu asarlari bilan o'zbek tili grammatikasini ilmiy asosda o'rganish ishiga tamal toshini qo'ydi. Fitratning tilshunoslik sohasidagi katta xizmatlaridan yana biri uning 20-yillarda qadimiy turkiy til, jonli xalq tili va shevalarga tayangan holda, ilmiy-adabiy muomalaga kirib kelayotgan yangi tushuncha hamda hodisalarni ifodalash uchun o'zbek tilining lug'at fondiga yangi so'zlar hamda atamalarni olib kirganligidadir.

Olim „Eng eski turk adabiyoti namunalari“ (matn, tadqiqot, izohlar, 1927), „O'zbek adabiyoti namunalari“ (matn, tadqiqot, izohlar, 1-jild, 1928) tazkiralari tuzib, milliy adabiy merosimizning eng qadimgi davrdan so'nggi davrlarga qadar yaratilgan namunalari to'plab, muayyan tizimga soldi („O'zbek adabiyoti namunalari“ning ikkinchi jildi noma'lum sabablarga ko'ra e'lon qilinmagan). „Qutadg'u bilig“ singari o'zbek yozma adabiyotining xalq orasida sochilib yotgan noyob yodgorliklarini qo'lga kiritish, o'rganish va chop etishga intildi. O'zbek

adabiyotining yirik namoyandalarini ilk bor o'rganib, „Bedil“ (1923), „Navoiyning forsiy shoirligi va uning forsiy devoni to'g'risida“, „Qutadg'u bilig“ (1925), „Ahmad Yasaviy“ (1927), „Yassaviy maktabi shoirlari to'g'risida tekshirishlar“, „Hibbat ul-Haqoyiq“, „O'zbek shoiri Turdi“ (1928), „XVI asrdan so'ngra o'zbek adabiyotiga umumiy bir qarash“, „Muhammad Solih“, „Fors shoiri Umar Xayyom“ (1929), „Mashrab“, „Farxodu Shirin“ dostoni to'g'risida“ (1930) kabi katta ilmiy qimmatga ega risola va maqolalar yaratdi. Fitrat bu tadqiqotlari bilan o'zbek adabiyotshunoslik maktabiga poydevor qo'ydi.

„She'r va shoirlig“ (1919), „Adabiyot qoidolari“ (1926), „San'atning manshai“ (1927), „Aruz haqida“ (1936) singari maqola va risolalari bilan adabiyot nazariyasi faniga asos soldi.

Fitrat dramaturgiyasi ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. U 1916-yildan boshlab teatr uchun ko'plab asarlar yaratdi. Ammo uning nafaqat 1916-1918-yillarda yozgan „Begijon“, „Qon“, „Abo Muslim“, „Temur sag'anasi“, „O'g'izxon“ singari pyesalari, hatto 1934-yilda yozgan „To'lqin“ opera librettosi ham bizgacha yetib kelmagan. Ma'lumki, Fitratning 5 pardali „Begijon“ pyesasida dehqonlarning xon zulmiga qarshi ko'targan isyonlari tasvir etilgan. „Temur sag'anasi“ pyesasida esa muallifning „Yurt qayg'usi (Temur oldinda)“ sochmasidagi istiqloq uchun kurash g'oyasi o'zining badiiy tajassumini topgan. Fitrat o'sha-yillarda yozgan boshqa sahna asarlarida ham tarixiy o'tmishga murojaat etganiga qaramay, bolsheviklarning Turkistonda olib borgan g'ayrimilliy siyosatiga faol munosabat bildirib, zulm va zo'rvonlikka asoslangan „yangi tuzum“ni keskin qoralagan. Fitrat ijodining shu davrdagi yetakchi motivi — bolshevikizmga qarshi kurash g'oyasi „Chin sevish“ (1920) va „Hind ixtilolchilari“ (1923) pyesalarida ayniqsa yorqin ifodalangan. Dramaturg Turkistonda Sho'ro hokimiyati-yillarida sodir bo'layotgan fojeali voqealarni Britaniyaning mustamlakasi bo'lgan Hindistonga ko'chirib, ingliz mustamlakachilariga qarshi kurashayotgan hind istiqloqchilari siymosida, ma'lum ma'noda, o'z vatandoshlari obrazini yaratdi. Javoharlal Neruning e'tirof etishicha, Fitratning bu asarlari hind xalqining mustamlakachilikka qarshi olib borgan kurashiga kuch va madad bergan.

Fitrat Moskvadalik paytida „Abulfayzxon“, „Shaytonning Tangriga isyoni“ (1924), ona yurtiga qaytgach esa „Arslon“, „Sho'rishi Vose“ („Vose qo'zg'oloni“, 1927), „To'lqin“ (1934) pyesalarini yozdi. Bu asarlari orasida „Abulfayzxon“ o'zining shekspirona epik ko'lami bilan ajralib turadi. Unda Fitrat Shekspir pyesalariga xos qabartma tip va xarakterlarni yaratdi. Zulmga

asoslangan saltanat tojining otadan bolaga o'tib kelishi natijasida paydo bo'luvchi qonli oqibatlarni haqqoniy tasvirladi. Mazkur pyesa asosida Ashtarxoniylar sulolasining so'nggi vakili bo'lmish Abulfayzxon saltanatining tanazzuli (XVIII asr) natijasida Buxoroda Mang'it amirlarining saltanat tepasiga kelishlari bilan bog'liq tarixiy voqealar yotadi. Fitratning olis tarixiy voqeaga nazar solishdan maqsadi: „Podsholik qon bilan sug'orilgan bir og'ochdir, qon oqib turmagan yerda bu daraxtning qurib qolishi aniqdir“ degan falsafa bilan yashagan va o'zi ham shu g'ayriinsoniy falsafaning qurboni bo'lgan Abulfayzxon singari qonxo'r podsholarni tarix qa'ridan olib chiqib, xalqqa ko'rsatishdir. Fitrat bu asari bilan bolsheviklar tuzumi XX asrning Abulfayzxon — Stalinni yaratishi va uning bepoyon mamlakatni qonga botirishini bashorat etdi. Shu ma'noda mazkur tragediya Fitrat zakosi bilan yaratigan xalqni ogohlantiruvchi asardir. Fitrat bu asari bilan o'zbek adabiyotida tragediya janriga asos solib, mazkur janrning asosiy tamoyillarini belgilab berdi.

Tarixshunoslik

Bundan tashqari Fitrat tarixshunoslik va sharqshunoslik sohalariga oid fors tilida maqola va risolalar ham yozdi, „Amir Olimxonning hukmronlik davri“ (1930) shular jumlasidandir. 1921-yilda B.Soliyev va B.S. Sergeyev bilan birgalikda Buxoro amiriga qarashli nodir qo'lyozmalar, vaqf hujjatlarini yig'ish, ularga tartib va tavsif berish ishlarida ishtirok etdi. B.S. Sergeyev bilan birgalikda V.L. Vyatkin arxivida saqlangan qozilarga oid hujjatlarni o'rganib, rus tilida „Казыйские документы XVI века“ (1937) nomli kitobni nashr ettirdi.

Musiqqa san'ati

Fitratning san'atshunoslikka oid xizmatlari ham tahsinga sazovordir. U 1921-yil Buxoroda Sharq musiqasi maktabini tashkil etib, bu maktabning birinchi direktori lavozimida ishlaydi. Maktabga mumtoz musiqqa bilimdonlari (sozanda, xonandalar) bilan birga Viktor Uspenskiy singari musiqashunoslarni ham taklif etdi. U shu vaqtdan boshlab „Shashmaqom“ kuylarini to'plash va notaga yozib olish ishlariga rahbarlik qildi. Fitratning tashabbusi bilan ota Jalol va ota G'iyosdan Buxoro Shashmaqomi V. Uspenskiy tomonidan ilk bora notaga olinib, nashr etildi. Fitrat „Shashmaqom“, „O'zbek musiqasi to'g'risida“ maqolalari va „O'zbek klassik musiqasi ham uning tarixi“ (1927) risolasi bilan XX asr o'zbek musiqashunoslik fanini boshlab berdi.

Fitrat ilg'or demokratik g'oya va fikrlari uchun ko'pchilik jadidlar qatorida shakkoklik va isyonkorlikda ayblandi. Chor ma'murlari esa uni

mustamlakachilikka qarshi turganlikda aybladilar, kommunistik mafkura humron bo'lgan sho'rolar davrida esa, millatchilikda, panturkizm g'oyasi tarafdori, „xalq dushmani“ degan tuhmatlar bilan aybladilar. Professor H.Yoqubovning hikoya qilishicha, Fitratni 1937-yilgacha uning do'sti Fayzulla Xo'jayev o'z himoyasiga olib kelgan. 1937-yilda ko'pchilik qatori Fitrat ham NKVD tomonidan qamoqqa olingan. Iosif Stalinning 1938-yil 28-martdagi „Otuvga e'lon qilinganlar ro'yxati“ga tushgan.

Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat **1938-yil 4-oktabr** kuni Toshkent shahrining hozirgi Yunusobod tumani Bo'zsuv qirg'og'idagi qatlgohda otib o'ldirildi. Uni o'limga mahkum qilish haqidagi sud qarori bir kundan keyin ya'ni 1938-yilning 5-oktabrida imzolandi. 1963-yil Iosif Stalin vafotidan so'ng Fitrat nomi oqlandi.

1991-yil 25-sentabrda Abdurauf Fitratga o'zbek dramaturgiyasini rivojlantirishdagi, realistik adabiy tanqidchilik hamda adabiyotshunoslik maktabiga asos solishdagi xizmatlari uchun Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti berildi. Mustaqillik ordeni berildi. Toshkent va Buxoroda Fitrat nomidagi ko'chalar, maktablar ochildi. Buxoro shahrida Fitrat bog'i va uy-muzeyi tashkil qilindi (1996). Buxoro shahrida Fitrat haykali o'rnatildi. 1996-yilda Abdurauf Fitrat tavalludining 110-yilligi mamlakat miqyosida nishonlandi, „O'zbekiston pochta“ tomonidan Fitratga bag'ishlangan pochta markalari chiqarildi.

Is'hoqxon to'ra Ibrat hayoti va ijodi

Is'hoqxon to'ra Ibrat 1862-yilda Namangan yaqinidagi To'raqo'rg'on qishlog'ida tug'ilgan. Uning bobosi To'raxon maxdum Qo'qon xonligida katta e'tiborga ega ziyoli insonlardan bo'lib, To'raqo'rg'onda uzoq yillar qozilik qilgan va „Afsus“ taxallusi bilan she'rlar yozgan. Is'hoqxonning otasi Junaydullaxo'ja she'riyatga ixlos qo'ygan, „Xodim“ taxallusi bilan she'rlar yozgan. Onasi Huribibi ham o'qimishli ayol bo'lgan va uyida qishloq qizlarini o'qitgan. 1870-yillarda otasidan ayrilgan Is'hoqxon dastlab hijo usuliga asoslangan qishloq maktabida o'qiydi. Keyin onasini qo'lida ta'lim olib savod chiqaradi Is'hoqxon o'qishni davom ettirish uchun 1878-yilda Qo'qonga boradi va Muhammad Siddiq Tunqotar madrasasiga o'qishga kiradi. Is'hoqxon Qo'qonda o'qib yurgan paytlarida „Ibrat“ taxallusi bilan she'rlar yoza boshlaydi.



1922-yilda uning katta o'gli Abbosxon bosmachilar odami sifatida shubha qilinib, rus hukumati askarlari tomonidan kaltaklab o'ldirilgan. Ushbu ma'lumotlar Is'hoqxon Ibratning „Qo'rboshilar zamoni“ asarida yozilgan bo'lsa-da, 1937-yilda qatag'on avjiga chiqqan pallada, bu qo'lyozma asar ham Andijon zindonida yo'q qilinadi Is'hoqxon Ibrat 1885-yilda Qo'qondagi madrasani tugatib, To'raqo'rg'onga qaytadi. Is'hoqxon To'raqo'rg'onga qaytgach hijo usuliga asoslangan „usuli qadim“ maktablaridan tubdan farq qiladigan maktab ochadi. Uning maktabi „usuli savtiya“ metodiga asoslangan maktab bo'lib, an'anaviy o'qitish usullaridan farq qiladi. Ammo bu maktab uzoq faoliyat ko'rsata olmadi. Mutaassiblar maktab faoliyatini to'xtatishga bir necha bor uringan va oxir-oqibat uni yopishga erishgan. Chet el hayoti va madaniyati bilan yaqindan tanishishni istagan Is'hoqxon 1887-yili sharq mamlakatlari bo'ylab safarga otlandi. Is'hoqxon to'raning safarga chiqishidan asosiy maqsad, avvalambor, onasining hajga olib borish haqidagi iltimosini qondirish bo'lsa, ikkinchidan, chet-el xalqlari hayoti, ma'daniyati bilan yaqindan tanishish, xorijiy tillarni o'rganish ishtiyoqi edi. 1892-1896-yillarda Hindistonning eng katta port shaharlari Bombay va keyinroq Kalkuttada yashaydi. Is'hoqxon sayohati davomida 4 ta tilni mukammal o'rganadi. Arab, fors, hind va ingliz tillari shular jumlasidandir. U sharq tillari bilan bir qatorda, g'arb tillarini ham bilish zarur deb hisoblaydi va Arabistonda fransuz tilini, Hindistonda ingliz tilini, shu bilan

birga, qadimgi finikiy, yahudiy, suryoniy, yunon yozuvlarini o'rganadi. Is'hoqxon bu mamlakatlarda naqqoshlik, kishilarga muhr yasab berish, masjid-madrasalar peshtoqlariga va qabr toshlariga naqsh solib berish, kitoblardan na'muna ko'chirib berish bilan tirikchilik qiladi. Is'hoqxon to'ra Ibrat 1896-yilda Hindistondan Birma orqali Xitoyga, so'ngra Qashqarga o'tdi va undan so'ng o'z vataniga qaytadi. Is'hoqxon Hindistondan „Santur“ nomli musiqa asbobi, bir qancha plastinkalar va grammofon olib keladi. Is'hoqxon To'ra Ibrat O'rta Osiyo hududidagi ilk matbaachilardan biri sifatida, 1908-yil Orenburg shahridan litografik mashina sotib olib, uni Orenburgdan Qo'qongacha poyezdda, Qo'qondan To'raqo'rg'onga tuyalarga ortib olib kelgan va o'z hovlisida „Is'hoqiya bosmaxonasi“ni tashkil qilgan. Bu asbob-uskunalar mahalliy savdogar Gaufmandan to'lovni 11 yilda amalga oshirish sharti bilan sotib olingan edi. Bu bosmaxona o'tgan asrning 60-yillarigacha faoliyat ko'rsatib kelgan va u yerda o'tgan davr mobaynida bir qator ilmiy-ma'rifiy kitob va risolalar, milliy gazetalar chop etilgan, ularni tarqatish uchun Farg'ona vodiysi bo'ylab o'nlab kitob do'konlari tashkil qilingan. 1908-yilda „Fiqhi Kaydoniy“ nomli tarjima kitobi arabcha matnda nashr ettiriladi. 1907-yilda hattotlik san'atiga oid 17 xil yozuv bilan ifodalangan asari Turkiston general-gubernatori tomonidan faxriy chopon bilan taqdirlanadi. Is'hoqxon Ibrat matbaachi sifatida 1908-yildayoq Namanganda „Matbaai Is'hoqiya“ni tashkil etib, kitob nashriga kirishgan edi. Is'hoqxon Ibratning „Jome' ul-xutut“ asaridan oldinroq yaratilgan „San'ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy (Mirrajab Bandiy qo'li bilan ko'chirilgan Ibrat husnixat san'ati haqida Mufradot kitobi)“ asari xattotlar uchun husnixat bo'yicha qo'llanma sifatida yaratilgan bo'lsa-da, Farg'ona vodiysi viloyat va shaharlarida faoliyat ko'rsatgan usuli jadid maktablaridan „Alifbo“ darsligi sifatida ham qo'llangan. 1914-yilda To'raqo'rg'onda rus maktabi ochdi va uni „Uchitel“ deb nomladi. Maktabni 1916-yilda general-gubernatorlik ma'muriyati ruxsatisiz ochilganini bahona qilib yopib qo'yishadi. Is'hoqxon Ibrat 1898-yildan boshlab To'raqo'rg'on va Namangan shaharlarida xalq qozisi lavozimida faoliyat yuritdi. 1913-yilda „Matbaai Is'hoqiya“ qoshida „At-Tujjorun Namangon“ nomida gazeta chiqarishga harakat qiladi va hukumatdan ruxsat olish uchun ariza yozadi. Har qancha harakat qilsa-da, Is'hoqxon gazeta chiqarishga muvaffaq bo'la olmadi. Lekin keyinchalik o'z uyida kutubxona tashkil qildi va uni „Kutubxonayi Is'hoqiya“ deb atadi. Kutubxonaning maktab o'quvchilariga bag'ishlangan bo'limida S.Saidazizov, Munavvarqori Abdurashidxonov, A.Avloniy, M.Behbudiy, Ismoil Gaspirali, S.Gramenitskiy kabi pedagoglarning ellikdan ortiq darslik va o'quv

qo'llanmalari bir necha nusxada, ta'lim-tarbiyaga oid yuzlab noyob kitoblar bo'lgan. Ibrat kutubxona a'zolarining kitob olish va o'qib bo'lgach, uni topshirish daftarini ham joriy qilgan. Maosh bilan ishlovchi kutubxonachi ham tayinlangan. Biroq, bir necha ming kitob, qo'lyozmalar, gazeta va jurnallar to'plamini o'z ichiga olgan ushbu kutubxona 1917—1920-yillarda talon-taroj qilindi. 1937-yilda butunlay yo'q qilib yuborilgan. U jamoat arbobi sifatida otasidan qolgan besh tanob yerda xalq uchun istirohat bog'i yaratdi, toshdan katta hovuz va o'rtasiga favvora qurdiradi, 150 tup archa va manzarali daraxtlardan xiyobon barpo etdi. Yevropa usulida katta imorat qurdirib, arkiga „Xush kelibsiz, Is'hoqiya bog'iga“ deb yozib qo'ygan.

Is'hoqxon Ibratning she'r va maqolalari „Taraqqiy“, „Tujjor“, „Sadoyi Turkiston“, „Al-Isloh“ gazeta va jurnallarida, Mahmudxo'ja Behbudiyning „Oyina“ jurnalida, Obidjon Maxmudovning „Sadoyi Farg'ona“ gazetasida doimiy bosib chiqarilgan.

Is'hoqxon „Lug'ati sitta al-sina“ asarini XIX asrning 90-yillarida, chet el safaridan qaytgach yozgan. Biroq, qattiq nazorat va ta'qiblar tufayli bu lug'at ancha kechikib, 1901-yilda Toshkentdagi V. I. Lenin nomidagi bosmaxonada chop etilgan. Lug'at olti tilli, murakkab, o'zbekcha so'zlarning arabcha, forscha, hindcha, turkcha va ruscha tarjimalaridan iborat. Mingdan ortiq so'zlarni o'z ichiga olib, 53 bet va ikki qismdan tashkil topgan. Is'hoqxon Ibratning mazkur lug'atini arab alifbosida yaratishi ham turkiy xalqlarni ruslashtirish siyosatiga zid edi. Lug'atning birinchi qismi alifbo tartibida tuzilgan bo'lib, har qaysi harfga alohida kichik-kichik boblar ajratilgan. Asarning ikkinchi qismi 37 bobdan iborat bo'lib, fe'llarning boshqa shakllari, otlar, kishilik olmoshlari, kun, oy nomlari, odam a'zolari, hayvonlar, hasharotlar, parrandalar, oziq-ovqat va boshqa predmetlarning nomlarini o'z ichiga olgan. Bu qismda avval arabcha, keyin uning forscha, turkcha, hindcha va ruscha tarjimalari keltiriladi Is'hoqxon Ibrat 1912-yilda tilshunoslikning o'sha davr uchun hali o'rganilmagan – dunyo yozuvlari tarixi va husnixati sohasiga bag'ishlangan „Jome' ul-xutut“ (Yozuvlar majmuasi) asarini o'z bosmaxonasi „Matbaai Is'hoqiya“da chop etdi. Muallif o'zining ushbu ilmiy asarida eng qadimgi yozuvlaridan – piktografiya (lotincha „pictus“ – rasm va grekcha „grapho“ – yozaman) to XX asr boshlaridagi eng mukammal yozuvlargacha bosib o'tilgan taraqqiyot davrini yoritib bergan. Is'hoqxon Ibratning ushbu asari 132 betdan iborat bo'lib, o'sha davrda dunyoga mashur bo'lgan qirqqa yaqin yozuv tizimi haqida, shu jumladan, arab xatining suls, tavqe', rayhon, zulf, humoyun, turra kabi husnixat shakllari haqida ma'lumot beradi. O'rta Osiyo tarixiga bag'ishlangan muallifning eng yirik va keng

qamrovli asari „Tarixi Farg‘ona“ 1912-1913-yillarda yozib tugatilgan. Is‘hoqxon Ibrat ushbu musavvada holatda bo‘lgan asar qo‘lyozmasini xattot Inoyatxon To‘raqo‘rg‘oniyga ko‘chirtiradi va yaqin tanishlaridan „Turkiston viloyatining gazetasi“ sobiq xodim tarixchi Mulla Olim Maxzum hojiga (bu olim ham xuddi shu davrga bag‘ishlangan „Tarixi Turkiston“ nomli asar yaratgan) va yaqin do‘sti Ibn Yaminbek vafot etgani uchun uning ukasi Fansurullohbek Xudoyorxon og‘liga – Toshkentga yuboradi. O‘zining bosmaxonasi „Matbaai Is‘hoqiya“ sho‘ro hukumatining dastlabki yiliyoq egasidan tortib olingan va bu asarni o‘z bosmoxonasida nashr etish imkoniyatidan mahrum etilgan edi. 1910-yillarning ikkinchi yarmidagi parokandalik, qatag‘on, buning ustiga, Mulla Olim Maxzumning vafot etishi, Fansurullohbekning qamoqqa olinishi va qamoqda vafot etishi oqibatida asar qo‘lyozmasi boshqa notanish insonlar qo‘lida qolib ketgan. G‘arb tillarini ham mukammal bilgan olim „Tarixi Farg‘ona“ asarini yaratish jarayonida atoqli sharqshunos olimlar V. V. Radlov, V.V.Bartold, V. P. Nalivkin, turkshunos, etnograf, sayyoh Herman Vamberi asarlaridan foydalangan.

Is‘hoqxon Ibrat XIX asrning birinchi yarmi – Muhammadalixon hukmronlik qilgan davrni qalamga olar ekan, 1842-yilgi Qo‘qonda bo‘lib o‘tgan qirg‘inni ham keng yoritib beradi. Buxora amiri Nasrullo Qo‘qonga bostirib kirib, shaharni talagan. Asarda shu bilan bir qatorda Nodirabegim hayoti va faoliyati haqida ko‘plab ma‘lumotlar keltirilgan. Tarixchi-olim Is‘hoqxon Ibrat asarda Qo‘qon xonligida hukmronlik qilgan xonlar faoliyatini xronologik tarzda bayon etadi.

She‘riyati

Is‘hoqxon Ibratning zamondoshi, shoir, tarjimon, xattot Sulaymonqul Muhsiniy Is‘hoqxon Ibratning fazilatlarini haqida gapirib, „sohibi devon“ deb ta‘rif bergan. Bundan tashqari, Ibrat she‘rlarining kichik bir qismini to‘plab, o‘z matbaasida „Ilmi Ibrat“ nomi bilan 1909-yilda Oxunzoda Abdurauf Shahidiy muharrirligida chop etgan. Kitob so‘nggi so‘z qismi bilan birgalikda 16 betdan iborat bo‘lib, 1 ta arabcha, 3 ta forsa, 5 ta o‘zbekcha she‘rdan tashkil topgan. To‘plamdagi she‘rlarning asosiy mazmunini shoir yashab ijod etgan tuzumdagi adolatsizlikni tanqid ostiga olish va xalqni ilm-ma‘rifatga chaqirish g‘oyalaridan tashkil topgan. Ibratning birmuncha she‘rlari shoirning to‘ng‘ich o‘g‘li Abbosxon Is‘hoqov tomonidan 1918-yilda tuzilgan bayozga kiritilgan. Is‘hoqxon Ibrat mazkur davr Qo‘qon adabiyoti muhitining Nodim Namangoniy, Mulla Jalolxon Vasfiy, Muhammadsharif So‘fizoda, Muhsiniy, Ubaydulla G‘urbat kabi yirik shoirlari bilan adabiy hamkorlikda bo‘lgan. Ibrat, asosan, o‘zbek tilida, qisman, arab va forsa tillarida ijod qilgan. Ibrat yoshligidan Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Bobur, Mashrab kabi ijodkorlarning merosini chuqur o‘rgangan. Ibratning

„Qarz“, „Qalaysizlar“, „Bo‘lubdur“, „O‘lursan“, „Siym-u zardur“ kabi she‘rlari ijtimoiy-siyosiy mavzularga bag‘ishlangan. Is‘hoqxon Ibratning 15 band 90 misradan iborat bo‘lgan „Qarz“ radifli musaddasi 1993-yilda „Turkiston viloyatining gazeti“da e‘lon qilindi. Shoirning ushbu she‘rida mustamlaka Turkistondagi hisobsiz soliqlar natijasida kambag‘al dehqonlarning boshiga tushgan musibatlar aks ettirilgan. Shu bilan birga shoirning „Tarixi chopxona“, „Madaniyat haqida masnaviy“, „Turkiston xalqig‘a xitob“, „Gazit xususida“, „Tabrik Namangondin“, „Tarixi manzumayi vagon“, „Qalam“ kabi she‘rlarida omma ichida keng tarqalgan

Matbaai Is‘hoqiya

Orenburg shahridan Is‘hoqxon Ibrat bir to‘plam toshbosma va bir komplekt tipografiya jihozlari olib kelgan. Litografiya ochish uchun Is‘hoqxon Ibrat Namangan shahar uyezdiga so‘ngra esa Farg‘ona viloyatiga bir necha bor so‘rovnoma asosida murojat qiladi. Oradan bir yil o‘tgach Farg‘ona viloyati hokimligi Is‘hoqxon Ibratga o‘z hovlisida bosmaxona ochishga ruxsat beradi. Ruxsatnoma olinganidan so‘ng u toshbosma matbaani uch kishi hamkorligida: shoir Abdurauf Shahidiy, Husain Makayev va A.Abdusattorboyevlar bilan o‘z uyida ish boshla. 1906-yilda Is‘hoqxon Ibrat tomonidan yaratilgan, Mirrajab Bandiy tarafidan ko‘chirilgan „San‘ati Ibrat qalami Mirrajab Bandiy Mufradot“ (Mirrajab Bandiy qo‘li bilan ko‘chirilgan Ibratning husnixat san‘ati haqida Mufradot kitobi) risolasi chop etildi. 26 sahifadan iborat bo‘lgan risola xattotlik san‘atiga qiziquvchilar va uni o‘rganuvchilar uchun mo‘ljallangan. Risolada xattotlik san‘ati namunalari berilgan. 1908-yilda litografiya „Ilmi Ibrat“ she‘riy risolasini nashr etdi, unda Is‘hoqxon Ibratning yetti she‘ri ham e‘lon qilingan edi. Bu she‘rlar ma‘rifatparvarlik mazmunida bo‘lib arab, fors va o‘zbek tillarida yozilgan. 1908-yilda Namanganlik Hoji Usmonbek zargarning „Ajoyib ulfozili olam“ (Fozillar va olimlarning ajoyib fazilatlari) asari nashr etildi. 1911-yilda o‘zbek yozma dramaturgiyasining to‘ng‘ich asari bo‘lgan qo‘qonlik muallim Abdurauf Samadovning „Mahramlar“ pyesasi nashr etiladi. 1912-yilda Is‘hoqxon Ibratning „Jome‘ ul-xutut“ (Yozuvlar majmuasi) ilmiy risolasi, jahon xalqlari turli yozuv tizimlarining kelib chiqishi, rivojlanishi va hozirgi ahvoli to‘g‘risida hikoya qiluvchi kitobi bosmadan chiqarildi. 1916-yilda Jizzax qo‘zg‘oloni munosabati bilan A.Muhiddinning „Loshmon fojealari“ she‘riy to‘plami nashr qilinadi. Aynan shu yili Is‘hoqxon Ibrat tomonidan nazmiy yo‘l bilan tuzilgan „Fiqhi Kaydoniy“ (Qonunshunoslik asri) ham nashr etilgan. 1917-yilda Qoraxoniylar davlati asoschisi Sotuq Bug‘raxonga bag‘ishlangan „Tazkirayi Uvaysiya“ asari chop etildi

Vafoti

Is'hoqxon To'ra Ibrat 1935-yildan hamma lavozimlardan olib tashlandi va 1937-yilning mart oyida sho'ro hukumati tomonidan amalga oshirilgan qatag'on natijasida qamoqqa olindi. Ibratning to'plangan qo'lyozma va toshbosma kitoblari, Fayzulla Xo'jayev tomonidan berilgan imtiyozli xat 4 ta qanor qopga joylanib, olib ketiladi. Uning qishlik uy -joyi, uy-ro'zg'or asboblari kim oshdi savdosiga qo'yib sotib yuboriladi, oilasi va bolalari 3 sotixdan iborat quruq yerga chiqarib qo'yiladi. U Andijon zindoniga yuborildi va u yerda besh-olti oy davomida hibsda saqlangan. Qamoq sharoitida u nafaqat jismoniy, balki ruhiy bosimlarga ham duch keldi. Ba'zi manbalarga ko'ra, Is'hoqxon Ibrat 1937-yilda qatag'on davrida qamoqxonada og'ir sharoitlarda vafot etgan.

Xotirasi

Is'hoqxon To'ra Ibrat o'zbek ma'rifatchiligi va adabiyoti tarixida muhim o'rin tutadi. Uning xotirasini abadiylashtirish maqsadida 2017-yil 13-aprelda Vazirlar Mahkamasi tomonidan „Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanida Is'hoqxon Ibrat nomidagi yodgorlik majmuasini tashkil etish“ to'g'risida qaror qabul qilindi. 2018-yil 3-may kuni ushbu majmua rasman ochildi va unda muzey, bog', xiyobon, bosmaxona hamda Is'hoqxon Ibratga bag'ishlangan haykal o'rnatildi. 2005-yilda uning katta hajmda pedagogik hamda adabiy, ilmiy asarlari qayta nashr etildi. 2017-yilda Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanida Is'hoqxon Ibrat nomidagi ijod maktabi ochildi.

Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi.

O'zbek romanchiligi maktabining asoschisi Abdulla Qodiriy 1894 yil 10 aprelda Toshkent shahrida bog'bon oilasida tug'ilgan. 9-10 yoshlarida eski usul maktabda taxsil ko'radi. So'ng rus-tuzem maktabida o'qiydi. 17-18 yoshlarida bir savdogarga prikazchilikka yollanib, uch-to'rt yil ishlaydi. So'ng bog'bonlik bilan tirikchilik o'tkazadi. Abdulla Qodiriy ijodi 1913—1914-yillardan boshlandi. U shu yillari barcha ilg'or fikrli yoshlar qatori jadidchilik xarakatiga qo'shilgan va o'zining ilk asarlarida ma'rifat, millat taraqqiyoti va xurligi g'oyalarini targ'ib eta boshlagan. Qodiriy dastlab ma'rifiy she'rlar yozdi. «Axvolimiz», «Millatimiz», «To'y» kabi she'rlari jadid matbuotida e'lon qilinadi. 1915-yili u «Baxtsiz

kuyov» pesasini yozadi. So'ng o'zi «milliy ro'mon» deb atagan «Juvonboz»



hikoyasini yaratadi. Bu asarlar xam avvalo ma'rifatparvarlik qarashlari maxsuli bo'lib, jamiyatdagi chirkin illatlar va qoloq urf-odatlarni keskin tanqid qilishga yo'naltirilgan.

A.Qodiriy ijodi ko'p qirrali bo'lib, uning matbuotdagi o'tkir yumor va satiralari qatorida zamonasining muammolarini ochib beruvchi tanqidiy va publikatsiln asarlarini ko'rishimiz

mumkin, hikoya va she'rlari bilan birgalikda esa, yozgan romanlari adabiyotimizda yaratilgan shoh asarlar darajasi deyilsa mubolag'a bo'lmaydi.

«O'tgan kunlar» romani 1925—1926-yillarda e'lon qilingan bo'lsa-da, yozuvchining shaxsiy ta'kidiga ko'ra kitob bundan 1-2 yil avval yozib bo'lingan. Shuningdek, birinchi nashrdayoq muharrirning “sotsialistik realizm” deb ataluvchi qaychisi romanning ayrim muhim qirralarini qirqib tashlagan.

Shunday bo'lsa-da roman mazmuni va ko'targan masalalari zalvorli. Undagi badiiylilik va har qanday o'quvchi uchun ikki-uch jumla bilan vaziyatni ko'z oldiga keltirib berish imkoniyati aksar adiblar asarlari orasida yaqqol ustunlik kasb etadi. Binobarin, yozuvchi o'zi aytolmagan ezgu umid orzularini o'z qahramonlari tilidan juda ustalik bilan ifodalab, asarning mohiyatini kuchli yechimlarga olib kelgan Xalqimiz Qodiriy shaxsiga, merosiga hamisha katta e'tibor va qiziqish bilan qaragan. Ammo mustabid tuzum sharoitida adib haqidagi bor haqiqat to'la yuzaga chiqmadi. A.Qodiriy hayotining eng fojeiy pallalari-1926 yili Qodiriy ustidan bo'lgan sud jarayoni materiallari, 1938-yilgi tergov va hukm tafsilotlari 90-yillarga kelib oshkor etildi. A.Qodiriyning “Yozuvchining so'nggi kunlari”, xotira-qissasi, I.Sulton, H.Sultonov, N.Boqiylarning adib hayotining dramatik lavhalarini aks ettirgan asarlar yaratildi.

A.Qodiriy ijtimoiy faoliyati doirasiga, badiiy ijod olamiga jadidchilik harakati ta'sirida kirib keldi. U inqilobiy o'zgairshlarga xayrixohlik bildirdi. Matbuotda faoliyat ko'rsatdi. “Mushtum” jurnalini tashkil etishda qatnashdi. 1919-25 yillarda 300 ga yaqin maqola yozdi. Qodiriy o'z davrining farzandi edi. Inqilobiy besabrlik “qizillanish” unga ham yod emasdi. Adib “sinfiy kurash”, “dinga qarshi” kompaniya tufayli boy va ulamolarni faqat boy, ulamoligi uchun sinfiy dushman sanab,ularga qarshi matbuotda ayovsiz kurash olib boradi, gohida bahslarda hamkasblarini haqoratlash tomon o'tib ketadi, o'ziga dushman orttirdi.

Natijada 1926-yili “Mushtum”da “Yig`indi gaplar” maqolasidan so`ng hibsga olinadi. Hamkasblari so`roq payti “shaxsiy adovat” sababli yolg`on guvohlik beradilar. Yozuvchi ularni sanab o`tgan “Oxirigi so`zi”da. U 3 oy qamoqda yotadi. U “Rahbar hodimlarni obro`sizlantirish” moddasi bilan Y.Oxunboboyev va A.Ikromovni kamsitgan deb ayb qo`yiladi. 2 yil beriladi. 1926-yil 8-martdan 1926-yil 17-iyungacha hibsdan bo`ladi. U bir necha shaxslarning orzusicha ma`naviy o`lim bilan o`ldirildi. Endi jismoniy o`lim unga qo`rqinch emasdi. Qodiriy 20-yillar suronidan omon chiqdi.

A.Qodiriy “O`tgan kunlar” romanini 1919-1920-yilda yozib tamomlagan. U noyob iste`dod egasi edi. Uning nasrdagi ustaligi tez mukammallashdi. Yozuvchi yoshligidan Sharq va G`arb madaniyati, adabiyoti bilan tanishdi. Rus-tuzem maktabida rus, madrasada arab, fors tillarini o`rgandi, turk yozuvchilaridan Yoqub Qodiriy, Rafiqiy, Ravshan Ashraf, Yahyo Kamol, arab yozuvchilaridan Jo`rji Zaydon- uning sevimli yozuvchilaridan edi. 20-yillar yozgan adabiy tanqidiy maqolalarida Dante, Sevfantes, Gogol, Chexov nomlari uchraydi. 20-yillardayoq A.Qodiriy mukammal realistik-estetik qarashlarga ega edi. Uning realizmga oid qarashlari bevosita ijod jarayonida tug`ilib, shakllandi. Jahon adabiyotidan bilamizki, realizmning estetik prinsiplarini avvalo, realist adiblar ishlab chiqadilar. O`zbek adabiyotida bu vazifa Qodiriy zimmasiga tushdi.

Adib 1926-yil kuzidan “Mehrobdan chayon”ni yozishga kirishdi. 1928-yil tugatdi. 1929-yilning martida Samarqandda bosilib chiqdi. Asarda yozuvchi 1926-yil voqealarini hikoya qilayotgandek tuyuladi.

Uni “Mehrobdan chayon” deb atash ziyoli, bilimli bo`la turib ilmiga amal qilmagan, shaxsiy manfaat yo`lida hech narsadan toymaydigan, halol, iste`dodli odamlarni ko`rolmaydigan hasadgo`ylar qilmishiga ishoradir. Anvar qismatida, ko`rguliklari, qalb iztiroblari ifodasida avtorning boshidan kechirganlari aks etgan.

Qodiriy 1926-yildan keyin ijtimoiy faoliyatdan ozod, o`z bog`ida mehnat qiladi. Oilasini boqish uchun tarjimalar bilan mashg`ul bo`ladi. 1932-yil “Adabiy-badiiy tashkilotlarni qayta qurish haqida” qaroridan keyin Qodiriyga munosabat o`zgardi. Lekin “dushman” qidirish, yot unsurlarni fosh etish jazavaga chiqqan, Qodiriyga yana hujum boshlandi, 1937-yilning o`zida unga qarshi 50dan ortiq maqola bosildi.

1937-yil 31-dekabrda Qodiriy hibsga olinadi. 1958-yil oqlandi.

Qodiriy 1926-yil sudda so`zlagan nutqi, “Yeg`ini gaplar” maqolasi, “O`tgan kunlar”, O`tgan kunlar tanqidi ustida ba`zi izohlar, tajribalariga oid gaplarida realizmning asl mohiyatini tushuntirib berdi.

Qodiriy realizmning eng asosiy jihatlari quyidagilar deydi:

- Hayot haqiqatiga sadoqat;
- Ijodkor-shaxsi butun, vijdonli, jasur siymo bo`lishi shart;
- Hayotni chuqur bilish, teran idrok va tahlil eta olishi lozim;
- Hayotiy tajriba, kuzatuvchanligi muhim;
- Milliyliksiz haqqoniylik yo`q;
- Holislik-odamlarning nozik tuyg`ularini boshqalarga yetkaza olish lozim.

Yozuvchi ijodiga baho berayotganda, asarlarini tahlil etganda adib amal qilgan estetik prinsiplar, u yaratgan asarlarning o`z ichki qonuniyatlarini hisobga olish kerak. Lekin uzoq yillar uni bir yoqlama baholab kelingan. M. Oybek ham Abdulla Qodiriyning ijodiy yo`li (1936) risolasida shunday fikr yuritdi.

Qodiriyning kashfiyoti shundaki, u “O`tgan kunlar”da yangi davr adabiyotining bir necha g`oyaviy-badiiy vazifalarini mohirona hal qilib berdi; asarda XIX asr rus va Yevropa realistik romanchiligiga xos deyarli barcha muhim xususiyatlarini topish mumkin.

“O`tgan kunlar” larda o`zbek xalqi hayoti ilk bor o`zining realistik ifodasini topdi. Unda o`zbekning butun hayoti: urf-odatlar-oila qurish, uy-ro`zg`or tutish, mehmon kutish, er-xotin, ota-bola munosabatlari, to`y-u a`za har xil majlislar: Dramatik, fojiiy voqealar, o`ta shaxsiy kechinmalar, hayot-mamot ahamiyatiga molik ulkan ijtimoiy-tarixiy hodisalar; o`rda hayotidan tortib oddiy kishilarning turmush tarzi-hammasi mujassam.

“O`tgan kunlar” da realizmning yana bir xususiyati-shaxs xarakteri, ruhiyati aniq tarixiy sharoit, jamiyat, siyosat, mavjud ahloq she`rlari mustahkam aloqada talqin etish aks etgan. Yana bir jihati-tarixiylik printsipi, adabiyotning hayotga yaqinlashuvi muvaffaqiyatli hal etildi. U real turmush manzaralarini san`at mulkiga, real hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantira oldi. To`qima shaxs va hodisalar tarixiysi bilan uyg`unlashgan.

Yozuvchi voqealarni chetdan turib kuzatadi, aralahsmaydi. Shaxslarni bor murakkabligicha ko`rsatadi. Eski qoloq udumlarni tanqid qiladi.

“O`tgan kunlar”ni biror adabiy-mafkuraviy yo`nalish namunasi (m,a.jajid yoki sho`ro, diniy adabiyot namunasi) deb bo`lmaydi. U 1-galda xolis-obektiv roman, realizmning yuksak namunasi. Bu juhatdan hali o`zbek adabiyotida unga tenglasha oladigan roman yaratilgan emas.

“Oʻtgan kunlar” tili ham noyob hodisa. Tili sodda, boy, boʻyoqli, ifoda kuchi zoʻr. uning poetik ifodalar tizimida mumtoz adabiyotning taʼsiri bor.

“Mehrobdan chayon” romanida esa adib masalalarga sinfiy yondashishga intiladi. bu esa bugun totalitar tuzum mafkurasi, sharoit, siyosatning salbiy taʼsiri sifatida baholanmoqda.

Solih Maxdum- eng jonli, yorqin, tipik realistik obraz.

“Oʻtgan kunlarda” tahliliy-psixologik tasvir yetakchi, “Mehrobdan chayon” da ham hujjatli nasr, pulitistika, ham hajviy-yumoristik, ham lirik-romantik uslublar tutashib, romanning oʻziga xos ohangini tashkil etadi. Yengil kulgi hazil-mutoyiba zamiridagi keskin dramalarni ochish, quvnoq ifodaning mungli, ogʻir fojiiy ruh bilan almashinishi romanning “Qirq qizlar”, “Nozik” boblarida alohida kuch bilan namoyon boʻlgan.

Asar bir syujetni davom etiruvchi uch kitob (qism)dan iborat. Har bir kitob alohida muammo va yechimga ega boʻlgani sababli ham alohida-alohida birin ketin bosilgan. Birinchi qism Otabekning kimligini ochib berish va uning sof muhabbatiga nisbatan tez va oson yetishi bilan boshlanadi. Muallif asar qahramonlarini muammoga olib kirar ekan, ikki jihatdan barobar qoʻldan bermay koʻrsatib oʻtishga urinadi. Birinchisi – Otabekning dushmani tomonidan qilinayotgan tuhmat va igʻvo oqibatida u bilan Qutidorning dor ostiga olib borishi boʻlsa, ikkinchidan Toshkent beki Azizbekning uzoqni oʻylamay qilgan harakati tufayli “Toshkent ustida qora bulutlar”ning paydo boʻlishi. Shu sababdan ham oʻqigʻuvchi kitobga tamoman berilib ketib, oʻzini asar qahramonlari orasida tasavvur etadi. Birinchi qismning yakuni Toshkent ustidagi qora bulutlarning arishi va Otabek hamda Qutidorning dor ostidan qaytishlari bilan yakun topadi. Albatta bu oʻrinda oʻsha davr sharq ayllarida nodir hodisa boʻlgan Kumush bibidagi jasoratni taʼkidlamay ilojimiz yoʻq. Bu kishida haqiqat yoʻlidagi kurashni hech qachon toʻxtatmaslik va jurʼatli boʻlish koʻnikmasini hosil qiladi.

Ikkinchi boʻlim Otabekning Toshkentdan uylanishi bilan boshlanib, Otabek va Kumushga maʼlum boʻlmagan qora kuchlar tomonidan taloq xati yozilishi va bu yozuvlarning ancha vaqt oʻz maqsadlariga yetganliklarini hikoya qilib muammoni boshlab beradi. Bu qismda asosiy syujetga yondosh holda, usta Alim hikoyasi oʻrin olgan boʻlib, bu hikoya ham asosiy syujetda koʻtarilgan muammoga oʻxshab ketishi nuqtai nazaridan oʻqigʻuvchini tamoman asar ichiga kiritib yuboradi. Ikkinchi boʻlim, ikki yosh orasiga qora tikanak boʻlib kimoqchi boʻlgan Homid xotinboz ustidan qilingan uzil kesil gʻalaba bilan yakun topadi.

Uchinchi boʻlim siyosiy jihatdan Musulmonqul zulmiga qoʻyilgan xotima bilan boshlanadi. Kumushlarning Toshkenga kelishidan soʻng qipchoqqa qirgʻin

voqeasi jamiyatdagi og'a-ini orasidagi noahillikni yozuvchi ustalik bilan oila ichidagi janjallarga o'xshatganday bo'ladi. YA'nikim, Kumush va Zaynab o'rtasidagi zimdan adovat tasvirlab beriladi va uchinchi bo'lim Kumushning fojeaona o'limi va Otabekning uydan ketishi voqeasi bilan yakun topadi.

Biz asarda yuqorida ta'kidlanganlardan tashqari, xalqimizning azaliy qadriyatlari, tilning jozibasi, odob va axloq, ma'naviy tarbiya, yuksak ruhiy ozuqani asardan topa olamiz.

Asarda bevosita Rus bosqinidan avvalgi Qo'qon xonligi davrida yashagan ikki yoshning chin muhabbatini tarannum etilgan bo'lsa-da, uni teranroq fikrlab o'qilganda, yozuvchi kelajak avlodga juda ko'plab zaruriy o'gitlarni aytib ketgan. Jumladan, Otabekning Akram hoji uyiga maxsus mehmon tarzida chaqirilgani borasidagi faslga e'tibor qaratilsa, ana shu majlis yoritilishining o'zida yozuvchi bir qancha muhim qirralarni ochib berishga erisha olgan. Bevosita axloq va odob tomonidan oladigan bo'lsak, madaniyatli kishilar o'zaro bir davrada suhbatlashib o'tirar ekanlar, mavzuni birdaniga boshqa tarafga burib yubormaydilar. Qutidor Otabekdan so'ramoqchi bo'lgan "Siz mani eslamassiz-a, bek", degan so'zini to Akram hoji bilan Ziyosho'ichining boshqa mavzudagi so'zlari tugamagunicha aytmay turadi. Bu har qanday suhbatning go'zal odobi hisoblanadi. Bir necha kishi bir davrada o'ltirib, har biri bir-birlariga so'z bermay, o'z bilganlarini so'zlab yotganlari qanday-ku, biron bir mavzuda navbat va odob bilan suhbatlashishlari qanday. Ayni bu majlisdagi suhbat ana shunday odob doirasida davom etdi. Binobarin, Otabekning Shamay ta'surotlari nihoyasidagi so'zlari nafaqat, roman mazmuni hikoya qilayotgan davr, balki roman yozilgan davr uchun ham muhim va dolzarb edi.

Xalq orasidagi o'zaro ittifoqning yo'qligi, so'nggi xonlik davrida qanday kulfatlar keltirgan bo'lsa, oktabr to'ntarishidan so'ng ham ana shundan kam bo'lmagan musibatlarni boshga soldi. Otabekning Shamay ta'surotlari haqidagi so'zlari ayni shu fikrni tasdiqlaydi: "— Shamayga bormasimdan ilgari o'z hukmdorlig'i-mizni ko'rib, boshqalar ham shundaydir, deb o'ylar edim, — dedi bek, — lekin Shamay manim fikrimni ost-ust qilib, o'zimni ham butunlay boshqa kishi yasadi. Men o'risning idora ishlarini ko'rib, o'z idoramizning xuddi bir o'yinchoq bo'lg'anlig'ini iqror etishka majbur bo'ldim... Bizning idoramiz bu kungi tartibsizligi bilan ketabersa holimizning nima bo'lishig'a aqlim yetmay qoldi. Shamayda ekanman, qanotim bo'lsa, vatanga uchsam, to'ppa-to'g'ri xon o'rdasiga tushsam-da, o'risning hukumat qonunlarini birma-bir arz qilsam, xon ham arzimni tinglasa-da, barcha elga yorlig' yozib o'risning idora tartibini dasturilamal etishka buyursa, men ham bir oy ichida o'z elimni o'risniki bilan bir

qatorida ko'rsam... ammo o'z elimga qaytib ko'rdimki, Shamayda o'ylag'anlarim, oshiqqanlarim shirin bir xayol emish. Bu yerda so'zimni eshitkuchi birov ham bo'lmadi, bo'lsalar ham: "Sening orzungni shu xonlar eshitadimi, shu beklar ijro qiladimi?" deb meni mayus qildilar. Ilgariroq men ularning gapiga bovar qilmay yursam, so'ngg'idan to'g'ri so'zni aytkanlarini bildim. Darhaqiqat, mozoristonda «hayya alalfalah» xitobini kim eshitar edi.

"Hayya alal-falah" arab tilida "najotga kelinglar" degan chaqiriq bo'lib, bu namozga chaqiruv azon kalimalaridan biri hisoblanadi. Muzoristonda "najotga kelinglar" degan so'zni aytish bilan qabrda yotganlar na namozga va na boshqa bir yumushga turmasliklari qanday aniq bo'lsa, xonlik rahbariyatiga borib o'zaro ittifoqlik haqida so'zlash ham shu qadar besamar ekanini ta'kidlamogda.

Muallif asar qahramonlari xarakterini ochib berishda ular og'zidan uchayotgan so'zlarni shu qadar ustalik bilan tanlaydiki, ziyoli qatlam bilan, kosib yoki kallakesar lug'atidagi so'zlar va so'zlash uslubi bir-biridan keskin farqlanadi. Masalan, Kumush Otabekka qarab, "rost so'zlamadingiz", deydi. Aslida bunday vaziyatda ko'pchilik, "aldayapsiz, gapingiz yolg'on", deydi. Ammo Kumushning qalbidagi muhabati o'z yorini yolg'onchilikda ayblashdan orlantiradi va u "rost so'zlamadingiz", deydi. Bevosita obrazlar haqida gapiradigan bo'lsak, bosh qahramon Otabekni ijobiy obraz sifatida bir vaqtlar ideal shaxs darajasiga olib chiqishlar bo'lgan. Lekin, muallifning o'zi Otabekni eng yaxshi biluvchi – otasi Yusufbek hoji tilidan uning o'rtacha farzandlar qatorida ekanini bayon qiladi. "Biz xudoi taolog'a minglab shukur aytamizkim, san boshqalarning farzandidek eslik-hushlik bo'lding, kishilardek sen bilan iftixor qilolmasaq-da, san orqalik xijolat chekmasimizga ishondik". Bu esa, o'sha kezlarda Otabek kabi el yurt qayg'usini anglagan, sof muhabbat uchun kurashuvchi, diyonatli va ma'naviy barkamol yoshlar ko'plab topilishiga ishora qilgan bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari asar bugungi kunda ming afsuski, unut bo'lib borayotgan maktub janrining ajab tovor jilosini yorqin chizgilar bilan ochib beradi. Ma'lumki, inson kim bilandir yuzma-yuz yoki telefon orqali suhbatda aytolmagan so'zlarini bevosita maktubda chiroyli ifodalaydi. Binobarin, maktub umuman dastxatni kishi ko'nglining in'ikosi – ko'zgusi deb atash mumkin. Muallif asarda bir necha maktublarni keltirar ekan, maktub san'atining o'ziga xos qirralarini ham bayon etib o'tgan.

Muallif qahramonlarning ruhiyatini tabiatdagi o'zgarishlar vositasi bilan uyg'un holda ifodalab, vaziyatni go'zal tarzda bayon etadi. Masalan, Kumushga

o'z vaqtida ko'rsatilmagan taloq xatining onasi tomonidan taqdim etilishi voqeasidan oldin yozuvchi quyidagi satrlarni yozadi:

“Kuz kunlarining oyog'i va qish kunlarining boshi edi. Daraxtlardagi sariq barglar to'kilib tugalgan, yer yuzi o'zining qishqi sariq kiyimini kiygan edi. To'rt tomoni-ning o'ralg'anlig'i soyasida yaproqlarini to'kilishdan saqlab qolg'an bu gilos yog'ochlari ham bu kun tungi qora sovuqqa chidalmay, yelning ozg'ina harakati bilan-da barglarini shirt-shirt uzib tashlamoqda edilar. Havo ochiq bo'lib, quyosh tuzukkina ko'tarilgan, ammo uning o'zi ham bu kun uncha ta'siri yo'q, bu kungi qora sovuq quyosh kuchini-da keskan edi”.

Bu satrlarni o'qigan odam issiq uyda o'ltirgan bo'lsa ham o'zini bir muncha seskanganini sezishi mumkin, holbuki keyingi voqealar kishi ruhiyatiga ta'sir etmay qolmaydi.

Abdulla Qodiriy yurt dardini anglab yetgan ma'rifatparvar adib edi. U ikki qalb sevgisidan iborat bo'lgan romanni yozar ekan, faqat shu fikrning o'zi bilangina maydonga kirmasligi aniq edi. Yozuvchi Tohir Malik roman haqida o'z mulohazalarini bayon qilar ekan, romanning boshlanish va xotima o'rinlaridagi so'zlarga alohida e'tibor qaratadi. Asarning birinchi jumlasida “tevarakdan shom azoni eshitiladir” deb yoziladi. Savol tug'iladi – nima sababdan besh mahal namoz orasida yozuvchi ayni shom namozi vaqtini tanladi? Tohir Malik buni millatning Quyoshi botib, qora tunlari yaqinlashayotganidan darak sifatida ifodalaydi. Yoki asarning oxirida O'zbek oyim qora kiyib aza ochdi, deyiladi. Avvalo O'zbek ismi erkaklarga berilish rasmi bor ammo, ayollarda uchramaydi. Uchrasa ham ular “O'tkan kunlar” qahramoniga tahassub. Bu yerda motam tutdi, qora kiydi deganda butun millat nazarda tutilmoqda. Chunki yov mamlakatga bosib kirgandi. Ana shunday tahlikali zamonda bir oila vakillarining o'zaro bir birlarini zaharlashi esa, jamiyatdagi o'zaro noittifoqlikning ramziy ma'nosidir.

Homidboy kabi salbiy obrazlar vositasida sotqin, xudbin va axloqiy buzuk kimsalarga nisbatan jamiyatning munosabatini ko'rsatish bilan barobarida, ular yov tomonidan yurtni toptalishi va talanishi, ma'rifatparvar ziyolilarning esa tuhmat va bo'hton qurboniga aylanishlarini bayon qilib o'tadi.

Ta'kidlash joizki, “O'tkan kunlar” romanchilik borasida ilk urinish bo'lsa-da hamon birinchi darajali asar martabasidan uni tushirib yubora oladigan asar yaratilgan emas. Albatta boshqa yozuvchilarning ijodida ham ko'p hayratlanarlik jihatlarni topish mumkin, biroq “O'tkan kunlar” bari-bir birinchi.

Ana shunday o'lmas asarlar muallifi Abdulla Qodiriy o'z zamonasining “Homid”lari xoinligi bois, “Musulmonqul”lar ko'rsatmasi bilan 1937-yil

soʻnglarida xibsga olinib, 1938-yil 4-oktabrda Toshkentda Boʻzsuv boʻyida qatl etiladi.

Ulugʻ siymolaridan biri Abdulhamid Sulaymon oʻgʻli Choʻlpon

Oʻzbek xalqining XX asrda yetishib chiqqan ulugʻ siymolaridan biri Abdulhamid Sulaymon oʻgʻli Choʻlpon 1897-yilda Andijonning Qatortarak mahallasida savdogar oilasida dunyoga kelgan.

Otasi Sulaymonqul Mulla Muhammad Yunus oʻgʻli (1874-1929) dastlab dehqonchilik, soʻngra bazzozlik bilan bilan shugʻullangan. Taniqli jurnalist va yozuvchi Moʻminjon Muhammadjonov “Turmush urinishlari” kitobida qayd etishicha, Choʻlponning otasi Sulaymonqul oʻz davrining yetuk ziyolisi, maʼrifatparvar kishisi boʻlgan. U “Rasvo” taxallusi bilan sheʼrlar ham yozgan, devon yaratgan.



Choʻlpon avval eski maktabda, soʻngra madrasalar va rus-tuzem maktabida tahsil olib, arab, fors va rus tillarini mukammal oʻzlashtiradi. Mutolaa yuli bilan esa turk, nemis va ingliz tillarini oʻrganadi. Sharq va Gʻarb ijtimoiy qarashlaridan oziqlanadi. Firdavsiy, Saʼdiy, Hofiz, Umar Hayyom, Alisher Navoiy kabi soʻz sanʼatkorlari ijodini qunt bilan oʻrganadi.

Choʻlpon dunyoqarashi va ijodining shakllanishiga asr boshlaridagi demokratik inqiloblar hamda jadidchilik harakati katta taʼsir koʻrsatgan.

Choʻlponning ijodi 1913-1914 yillardan boshlangan boʻlib, u avval “Qalandar”, “Mirzaqalandar”, “Andijonlik” va nihoyat “Choʻlpon” (Tong yulduzi) taxallusi bilan ijod qildi. U ham shoir, ham nosir, ham dramaturg sifatida oʻz xalqi adabiyoti ravnaqiga salmoqli hissa qoʻshadi. Choʻlponning dastlabki asarlari “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Fargʻona” kabi mahalliy gazetalarda, shuningdek, Orenburgda chiqadigan “Shoʻro” jurnalida nashr etiladi. Choʻlponning “Ishtirokiyun”, “Qizil bayroq”, “Turkiston”, “Buxoro axbori” kabi gazetalardagi faoliyati ham uning ijodiy shakllanishida maktab boʻlib xizmat etadi. Choʻlpon ocherknavis va publitsist sifatida ham barakali ijod qildi. Bu borada ayniqsa, uning **“Adabiyot nadir”**, **“Muhtaram yozuvchilarimizga”** kabi maqolalari adabiyotning maqsad va vazifalarini anglashda muhim rol uynaydi. U 1914-1917

yillarda yaratgan **“Qurboni jaholat”, “Do‘xtir Muhammaddiyor”** singari hikoyalari, **“Vatanimiz Turkistonda temir yo‘llar”** singari maqolalarida madaniyat va ma‘rifat targ‘ibotchisi sifatida maydonga chiqdi. U Oktabr to‘ntarishidan keyingi 1920-1924 yillarda hayotda sodir bo‘layotgan xush va noxush o‘zgarishlarni qalamga oldi. **“Yo‘lda bir kunduz”, “Yo‘lda bir kecha”, “Sharq poyezdi keldi”, “Sharq uyg‘ongan”, “Quturgan mustamlakachilar”, “Yo‘l esdaligi”** singari o‘nlab ocherklari va publitsistik maqolalarida chorizm mustamlakachilari va mahalliy hokim sinf yetkazgan jabru jafolar yetmaganidek, fuqarolar urushi davrida ruy bergan fojealarni qoraladi. Cho‘lpon 1922-1926 yillarda o‘zining **“Uyg‘onish”,** (1922), **“Buloqlar”** (1923), **“Tong sirlari”**(1926), **“Soz”** (1935) kabi to‘rtta she‘riy to‘plamini nashr ettirdi. 30-yillarga kelib, **“Jo‘r”** to‘plamini tayyorladi. Ammo **”Soz”** i chop etiladi, **“Jo‘r”** to‘plami qatag‘onlik tuzog‘iga ilinib qolib ketadi. Shoirning to‘plamlari orasida **“Buloqlar”** (1923) alohida ajralib turadi. To‘plam besh bo‘limdan iborat bo‘lib, ular **“Sharq uchun”, “Sezgilar”, “Sevgi”, “Qora yullar”** va **“Qor quynida”** deb nomlanadi. Shoirning o‘zi qayd etishicha, mazkur she‘riy guldasta **“jahon”** fotihlari changalida ezilib yotqon Sharq o‘lkalarga bag‘ishlangan. Jumladan, **“Amalning o‘limi”** she‘rida shunday misralarni o‘qiymiz:

Ko‘nglimda yig‘lagan malaklar kimlar,

Sharqning onalari, juvonlarimi

Qarshimda ingragan bu jonlar kimlar,

Qullar o‘lkasining insonlarimi

Cho‘lpon 1925-yillarga kelib, **“Muhit kuchli ekan, egdim bo‘ynimni”** deya ijtimoiy qarashlarini o‘zgartirishga majbur bo‘lganligini e‘tirof etadi. Ammo shunga qaramay, shoir yaratgan ikki yuzdan ortiq she‘riy asarlar yurt baxti, kelajagi, mustaqilligi, ozodligi uchun kurashning yorqin solnomasi desa bo‘ladi:

...Birligimizning tebranmas tog‘i,

Umidimizning so‘nmas chirog‘i.

Birlash, ey xalqim, kelgandir chog‘i,

Bezansin endi Turkiston bog‘i.

Qo‘zg‘al, xalqim, yetar shuncha jabru jafolar!

Cho‘lpon yetuk lirik shoirgina emas, balki **“Novvoy qiz”, “Oydin kechalarda”, “Qor qo‘ynida lola”** kabi o‘nlab hikoyalar, **“Kecha va kunduz”** (1936) kabi ajoyib roman ham yaratgan iste‘dodli adibdir. Dramaturgiyaga qo‘shgan xissasi Cho‘lpon dramaturg sifatida ham salmoqli ijod qilgan. Uning **“Xalil farang”, “Cho‘rining isoni”** kabi kichik pyesalari, **“O‘rtoq Qarshiboyev”, “Mushtumzo‘r”** kabi dramalari hamda ko‘p vaqt sahnadan

tushmagan **“Yorqinoy”** pyesalari mashhur bo‘lgan. Shuningdek, rus yozuvchisi V. Yan bilan hamkorlikda **“Hujum”** dramasi yaratgan. Nodir asarlar tarjimai Cho‘lpon mohir tarjimon sifatida V. Shekspirning **“Hamlet”** fojeasini, A.S. Pushkinnig **“Dubrovskiy”** qissasini va **“Boris Godunov”** kabi pyesalarini, M. Gorkiyning **“Ona”** romanini va boshqa ko‘plab asarlarni o‘zbek tiliga mahorat bilan o‘giran.

Cho‘lpon ham Fitrat va Abdulla Qodiriylar kabi qatag‘onlik davrining qurboni bo‘lgan. U 1937-yilning 14-iyulida qamoqqa olinib, 1938-yilning 4-oktabrida otib tashlangan.

1991 yil 25-sentabrda Cho‘lponga Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti berilgan, 1999-yil **“Mustaqillik”** ordeni bilan taqdirlangan.

1997 yili adib tavalludining 100-yilligi kunlarida ko‘plab asarlari nashr etildi, u haqida ilmiy tadqiqotlar yaratildi.

Abdurashidxonov Munavvar qori hayoti va ijodi

Abdurashidxonov Munavvar qori (1878, Toshkent — 1931.23.4, Moskva) — O‘rta Osiyo jadidchilik harakatining yo‘lboshchisi, XX asr o‘zbek milliy matbuoti va yangi usuldagi milliy maktab asoschisi, yangi milliy teatr tashkilotchilaridan biri, yozuvchi, adib va shoir. Turkistondagi Sho‘roi Islomiy tashkilotining rahbari. Qatag‘on qurboni.

Toshkent shahrining Shayxontohur dahasidagi Darxon mahallasida ziyoli oilada tug‘ilgan. Otasi Abdurashidxon Sotiboldixon o‘g‘li mudarris, onasi Xosiyat otin Xonxo‘ja Shorahimxo‘ja mudarris qizi otinoyi bo‘lgan. U oilada uchinchi o‘g‘il bo‘lgan. Munavarqori ilk saboqni ota-onasidan, mahalla maktabidan olib savodini chiqardi. Shuningdek, katta akalari A‘zamxon (1872—1919) va Muslimxon (1875—1954) ham unga muallimlik qilishgan. Otasidan yosh yetim qolgani tufayli dastlabki ta‘lim-tarbiyani onasidan olgan. So‘ng o‘z davrining mashhur o‘qituvchisi Usmon domladan ilmi qiroat va tajvidni o‘rganib, hofizi Qur‘on bo‘lgan. Toshkentdagi Yunusxon madrasasida o‘qigan. 1885—1890-yillarda Buxorodagi Mir Arab madrasasida tahsil olgan, ammo tahsilni oxiriga yetkazmay, Toshkentga qaytib, imomlik va muallimlik bilan shug‘ullangan. Eshonquli dodxoh madrasasida tahsilni davom ettirgan.

1901-yilda usuli jadid maktabini ochgan va shu maktablar uchun maxsus o'quv dasturini tuzgan, darsliklar yozgan. 1903-yildan jadid maktablari ochib, dars bergan. Shunday maktablar uchun tovush usulida yozgan „Adibi avval“ („Birinchi adib“, 1907) alifbe kitobi, „Adibi us-soniy“ („Ikkinchi adib“, 1907). Unda „Himmatli faqir“ she'ri keltirilgan) o'qish kitoblari bir necha bor nashr qilingan. 1904-yildan ijtimoiy siyosiy, madaniy hayotga aralasha boshlagan. 1906-yildan „O'rta Osiyoning umrguzorligi, taraqqiy“, „Taraqqiy“ gazetalarida adabiy xodim. Shu yili noshir va muharrir sifatida „Xurshid“ gazetasini tashkil etgan. 1908-yil uning „Sabzazor“ (to'plam), „Yer yuzi“ (geografiyadan), „Tajvidal Qur'on“ (Qur'onni o'qish usulini o'rgatgan) kitoblari ham bosilib, yangi usuldagi maktablarda darslik sifatida qo'llangan. „Shuhrat“ (1907), „Tujjor“ (1907), „Osiyo“ (1908) gazetalarini g'oyaviy boshqargan va adabiy xodim vazifasini bajargan. So'ng „Sadoyi Turkiston“ (1914—1915) gazetada mas'ul muharrir muovini, „Al-isloh“ jurnali (1915—1917)da maxfiy muharrir, „Najot“ va „Kengash“ (1917) gazetalarida mas'ul muharrir.

Munavvarqori ibn Abdurashidxon turli jamiyat va uyushmalar tashkilotchisi. U „Jamiyati Imdodiya“ (1909), „Turon“ (1913), „Turkiston kutubxonasi“ (1914), „Umid“ (1914), „Maktab“ (1914), „Ko'mak“ (1921) jamiyat, tashkilot, shirkat va uyushmalarida muassis, muovin, rais, a'zo. Sho'rolar hukumati davrida Xalq dorilfununi sho'rosining raisi, Turkiston Maorif xalq komissarligi turk shu'basining ish yurituvchisi (1918), Toshkent shahri maorif noziri, Sharq xalqlari syezdi (1920, Boku) delegat va hay'ati a'zosi. BXSr Maorif nozirligi vaqf bo'limi boshlig'i (1920—1921), Toshkent shahri ijtimoiy tarbiya bo'limi mudiri (1921), Akademmarkaz raisi (1922), Navoiy nomidagi maktab, Narimonov nomidagi pedagogika texnikumi, ayollar pedagogika institutida muallim (1923—1925), Samarqand shahri muzeyida ilmiy xodim, O'zbekiston osori-atiqalarni saqlash qo'mitasining Toshkent-Farg'ona bo'limida mas'ul kotib (1927—1928).

Munavvarqori ibn Abdurashidxon bir qancha darslik muallifidir.

„Adibi avval“ (1907)

„Adib us-soniy“ (1907)

„Usuli hisob“ (1911)

„Tarixi qavm turk“ (1911)

„Tajvid“ (1911)

„Havoyiji diniya“ (1912)

„Tarixi anbiyo“ (1912)

„Tarixi islomiya“ (1912)

"Yer yuzi" (1916—1917)

4 qismdan iborat „O‘zbekcha til saboqligi“ (Shorasul Zunnun va Qayum Ramazon bilan birga, 1925—1926, 4-qismi musodara qilingan) darsliklari bir necha marta chop etilgan.

1914-yilda taraqqiyparvar o‘zbek shoirlarining she’rlarini jamlab, „Sabzavor“ nomi bilan she’riy to‘plam nashr etgan.

Munavvarqori ibn Abdurashidxon ijtimoiy-pedagogik faoliyat bilan birga badiiy ijod bilan ham shug‘ullangan. Uning ixcham hikoyalari, talaygina she’rlari o‘sha davrdagi matbuot va o‘zi tuzgan hamda yozgan darsliklarga kiritilgan. Shuningdek, u o‘tkir publitsist adib sifatida tanilgan. Misralarida inson va jamiyat, din va dindorlik, axloq, mustamlakachilik va hurriyat, ziyolilik, uyushma, tashkilot, davlat idorasi masalalariga alohida e’tibor qaratgan.

Munavvarqori ibn Abdurashidxon o‘z faoliyati davomida pedagogik, matbuotchilik, muharrirlik, adiblik bilan cheklanmay, jiddiy siyosiy faoliyat ham olib borgan, shu sababli mustamlaka hukumati tomonidan bir necha bor hibsga qilingan.

Yevropa savdo-sanoat, ilm-fanini o‘rganishga chaqirgan, ma’naviy qoloqlikni qoralagan. Chor va sho‘ro hukumatlari olib borgan mustamlakachilik siyosatiga qarshi izchil kurash olib borgan. Sho‘royi Islom" tashkilotining ideologi, rahbari, shuningdek, „Turk adam markaziyat“, „Ittihad va taraqqiyot“, "Milliy ittihad", „Nashri maorif“ kabi jamiyat, firqa va tashkilotlar faoliyatiga rahbarlik qilgan. U vijdon erkinligini inkor etmagan dunyoviy demokratik davlat tarafdori bo‘lgan. Shu sababli Qo‘qon shahrida tashkil topgan Turkiston muxtoriyatini (1917) qo‘llab-quvvatlagan. Umr bo‘yi o‘z Vatanini mustaqil ko‘rishni istagan. Munavvarqori 1929-yil 6-noyabrda nohaq millatchilikda ayblanib, qamoqqa olinadi. Moskva shahridagi Butirka qamoqxonasida qatl qilingan va Vagankova qabristoniga dafn etilgan. 1991-yilda rasman reabilitatsiya qilingan

Foydalanilgan Adabiyotlar ro`yxati

- 1.Ch. Niyatov “Qatag`on yillar qurbonlari” . O`qituvchi –nashriyoti.- 1992y.
- 2.H.Qodiriy. A.Qodiriy ijodi haqida ba`zi nuqtalar “O`zbek tili va adabiyoti” jurnali, 1980 yil
3. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash, Toshkent, 1999;
4. O`zbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar, Toshkent, 1998;
5. Markaziy Osiyo XX asr boshida: islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash, Toshkent, 2001.
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Mahmudxo%CA%BBja_Behbudiy
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Jadidchilik>
8. <https://www.ziyouz.uz/ru/literatura/period-dzhadidskoj-literatury/165--1886-1938>
9. <https://ziyouz.uz/ozbek-ziyolilari/munavvar-qori-abdurashidxon/>

Mundarija

Kirish o`rnida	-----3
Avloniy	-----16
Behbudiy	-----21
Fitrat	-----30
Is`hoqxon to`ra Ibrat	-----39
Abdulla Qodiriy	-----44
Cho`lpon	-----52
Abdurashidxonov Munavvar qori	-----54